

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI BITIRUVCHISI
SARVINOZ SHODMONOVANING “HOZIRGI O‘ZBEK
SHE’RIYATIDA MURABBA’ JANRI AN‘ANALARI VA UNING
YANGILANISH HOLATI (A.ORIPOV, M.YUSUFLAR IJODI
MISOLIDA)” MAVZUSIDAGI**

MALAKAVIY BITIRUV ISHI

Ilmiy rahbar: dots. A.Yu.Xudoyberdiev

Taqrizchi: f.f.n., dots. F.Shodiyev

Samarqand-2013

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Fakultet: O'zbek filologiyasi
Yo'nalish: 5220100- Filologiya (O'zbek filologiyasi)

«TASDIQLAYMAN»
O'quv-metodik boshqarma boshlig'i

H.Qurbonov
“ ____ ” _____ 2012-yil

Bitiruv ishi bo'yicha

TOPSHIRIQ VARAQASI

1. Ijrochi: SHodmonova Sarvinoz

2. Mavzu: Hozirgi o'zbek she'riyatida murabba' janri an'analari, yangilanish holatlari (A.Oripov, M.Yusuf ijodlari misolida).

Mavzu universitet Ilmiy Kengashining 2012-yil 13-noyabrdagi 3-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

3. Mavzuning dolzarbligi, nazariy va amaliy (iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik, ilmiy-texnik, mehnat muhofazasi, hayot xavsizligi va h.k.) ahamiyati.

Mazkur malakaviy bitiruv ishida o'zbek adabiyotida ming yillik tarixga ega bo'lgan murabba' janrining paydo bo'lishi taraqqiyoti va poetikasi yuzasidan qilingan ishlarga sharh berilgan hamda hozirgi o'zbek adabiyotida bu janrning an'analari yangilanish holatlarini A.Oripov va M.Yusuf ijodlari misolida tahlil qilish belgilangan. Bu mavzu o'zbek adabiyotida ilmiy tadqiqot ishi sifatida o'rganilmagan.

4. Malakaviy bitiruv ishini bajarish uchun tavsiya qilinadigan ilmiy, o'quv-uslubiy va boshqa axborot manbalari (darslik, o'quv qo'llanmalari, ma'ruzalar matni, monografiya, ilmiy maqolalar va h.k.).

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Karimov I. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor.-T.: O'zbekiston, 2009.
3. Adabiyot darsliklari. 5,6,7,8,9-sinflar. 2006-2010 yillar. T.: O'qituvchi nashriyoti.
4. 5-9 sinflar adabiyot o'quv dasturi. Toshkent. O'qituvchi. 2012 yil.
5. Alisher Navoiy. Tanlangan asarlar. 13 tom. Toshkent. Fan. 1997 yil.
6. A.Oripov. Ifodali o'qish. O'quv qo'llanma. Toshkent. 2006 yil.
7. N.Komilov. Tasavvuf. 1-kitob. T.: Yozuvchi. 1996 yil.
8. I.Haqqul. Tasavvuf va she'riyat. T.: 1991 yil.
9. Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. T.: 1992 yil.
10. A.Qayumov. Qadimiyat obidalari. T.: 1972 yil.
11. M.Ibraximov. O'zbek sovet poetikasi janrlarining tarkib topishi. T.: Fan, 1983 yil. 224 bet.
12. A.Zunnurov, J.Esonov. Maktabda adabiyot o'qitish metodikasi. T.: O'qituvchi. 1985 yil 196 bet.
13. A.Xudoyberdiyev. O'zbek poeziyasida murabba'. Samarqand. Adabiyot va san'at nashriyoti. Sam.bo'lim, 1991 yil 82 bet.
14. M.Yusuf. Uyqudagi qiz. T.: Adabiyot va san'at nashriyoti. 1989 yil. 263 bet.
15. A.Oripov. T-a. I tom. Adabiyot va san'at nashriyoti. T.: 2000 yil. 432 bet.
16. A.Oripov. T-a. I tom. Adabiyot va san'at nashriyoti. II tom 2001 yil 490 bet.
17. 5220100 – filologiya. (O'zbek filologiyasi). Ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'quv dasturi.2003 yil. 163 bet.
18. Adabiy ta'lim va yoshlar tarbiyasi. Ilmiy anjuman materiallari. 2-kitob. 2010 yil. 184 bet. Nizomiy DPU.
19. A.Xudoyberdiyev. Adabiyot darslarida innovasion texnologiyalaridan foydalanish. Uslubiy qo'llanma. SamDU nashriyoti, 2010 yil. 76 bet.
20. B.To'xliyev, Adabiyot o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. Toshkent, O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2012 yil. 167 bet.

21. B.To‘xliyev, Adabiyot o‘qitish metodikasi. Amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2012 yil. 142 bet.

22. Internet, Ziyonet.

5. Bitiruv ishi bo‘yicha ma‘lumotlar to‘plash hamda tadqiqot ishini olib borish ob‘yektlari: SamDU axborot-resurs markazi o‘quv zali, A.S.Pushkin nomidagi shahar kutubxonasi. O‘zbek filologiyasi fakulteti qiroatxonasi, amaliy tilshunoslik, o‘zbek tili va adabiyoti o‘qitish metodikasi kafedrasida hamda Samarqand shahridagi 45-maktabda yetarli manba mavjud. Ilmiy rahbarning shaxsiy kutubxonasidan ham foydalanish mumkun.

6. Bitiruv ishini tayyorlash bo‘yicha amalga oshiriladigan ishlar rejas:

T/n	Ishning mazmuni	Taxminiy hajm (bet)	Ijro muddati	Izoh
1.	Masalaning qo‘yilishi. Mavzuning dolzarbligi, yechilishi yoki o‘rganilishi lozim bo‘lgan masalaning mohiyati va maqsadini yoritib berish (kirish qism)	3-5 bet	2012-yil noyabr, dekabr.	
2.	Mavzu bo‘yicha ma‘lumotlarni to‘plash va tahlil qilish (yordamchi mulohaza va faktlar)	12-14 bet	O‘quv yili davomida	
3.	Olib borilgan tajribalar, tadqiqot ishlari natijalarini tahlil qilish va tartibga solish (paragrif, bob, bo‘lim yoki qismlar bo‘yicha)	35-42 bet	O‘quv yili davomida	
4.	Olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati bo‘yicha xulosa berish hamda tadbqiq sohalari va usullariga oid takliflar tayyorlash.	4-6 bet	yanvar, fevral	
5.	Bitiruv ishini rasmiylashtirish va uning himoyasi uchun zaruriy ko‘rgazmali vositalarni (jadvallar, rasmlar, grafiklar, diagrammalar, maket, stend va h. k.) tayyorlash	5-7 bet	mart, aprel	
6.	Dastlabki himoyaga tayyorgarlik Ko‘rish va himoyaga chiqish matnini tayyorlash	4-6 bet	may	
7.	Bitiruv ishi bo‘yicha qo‘shimcha maslahatlar			

Ilmiy rahbar :

Xudoyberdiyev A.

Kafedra mudiri:

Muhiddinova B.

Ijrochi:

Shodmonova Sarvinoz

HOZIRGI O‘ZBEK SHE’RIYATIDA MURABBA’ JANRI AN’ANALARI VA UNING YANGILANISH HOLATI

(A.Oripov, M.Yusuflar ijodi misolida)

Reja:

Kirish: Mavzuning dozarbligi, maqsadi, vazifasi.

I bob: O‘zbek mumtoz adabiyotida murabba’ she’r janri va u bo‘yicha qilingan ishlar tahlili.

1. Murabba’ janri genezisi.
2. Murabba’ janrining XX asrgacha taraqqiyot yo‘li.
3. Murabba’ janri poetikasi.

II bob. XX asr o‘zbek adabiyotida murabba’.

1. Hozirgi o‘zbek she’riyatida murabba’ janri rivoji.
2. Murabba’ janrining yangilanish an’analari va o‘ziga xos xususiyatlari.

Abdulla Oripov, Muhammad Yusuf.

Xulosa

Adabiyotlar.

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi:

Murabba' janri va bu janrda ijod qilgan shoirlarning ikki ming yillik tarixi, taraqqiyoti, poetikasi haqida filologiya fanlari nomzodi A.Xudoyberdiyev "O'zbek poeziyasida murabba'" mavzusidagi nomzodlik dissertasiyasida ilmiy asoslab bergan. Biroq, hozirgi o'zbek adabiyotida keyingi bir asrlik davr, jumladan, mustaqillik yillarida ijod qilgan shoirlar, Cho'lpon, Fitrat, Oybek, G'.G'ulom, H.Olimjon, Uyg'un, Habibiy, Charxiy, Sobir Abdulla, Akmal Po'lat, Vosit Sa'dulla, Abdulla Oripov, Omon Matjon, Muhammad Yusuf ijodida barmoq vaznida yozilgan murabba'lar alohida ilmiy tadqiqot obyekti bo'lmadi. To'g'ri, ularning ijodi haqida, asarlarining g'oyaviy mazmuni to'g'risidagi tadqiqotlarda u yoki bu tarzda ma'lumot berilgan bo'lsa-da, murabba' janri alohida o'rganilmadi. Ana shu nuqtai nazardan A.Oripov va M.Yusuf murabba'larini o'rganish bugungi kundagi dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Tadqiqotning yangiligi:

Yuqoridagi dolzarb vazifadan kelib chiqqan holda, men A.Oripov va Muhammad Yusuf ijodlarida murabba' janrining o'rni va ahamiyati haqida fikr yuritishni lozim topdim. Chunki bu janr xalq qo'shiqlari, laparlari, aytishuvlariga yaqin, sho'x, o'ynoqi. Muhammad Yusuf o'zining oltmishga yaqin murabba'lari bilan xalq qalbidan joy oldi. Ularning barchasi qo'shiqqa aylandi. Ana shularning mazmun mohiyatini ilmiy asosda tahlil qilishimiz kerak edi. To'g'ri A.Oripov, Muhammad Yusuf ijodlariga oid dissertasiyada (M.Davronova), bir qator ilmiy maqolalarda u yoki bu tarzda fikrlar bildirilgan, biroq, aynan shu janr monografik tarzda o'rganilmagan.

Maqsad va vazifa:

1. Abdulla Oripov va Muhammad Yusufning murabba' janridagi she'rlarini alohida holda o'rganib, uning mazmun mundarijasini, mavzularini aniqlab, tahlil qilish.

2. Shoirlar ijodidagi murabba' janrining o'ziga xos badiiy xususiyatlarini ochib berish.

3. Abdulla Oripov va Muhammad Yusufning bu janr imkoniyatlaridan foydalanib, o'z fikr g'oyalarini yangicha bayon qilganligini aniqlash.

Nazariy va amaliy ahamiyati

1. Abdulla Oripov va Muhammad Yusuf ijodi misolida o'zbek she'riyatida murabba' janrini bugungi kundagi o'rnini belgilab berish. Nafaqat o'zbek adabiyotida, balki turkiy xalqlar adabiyotidagi (ozarbayjon, turkman, qozoq, qirg'iz) bu janrning hozirgi o'rniga baho berish va buning sabablarini o'rganish.

Metodologik asosi:

Turkiy xalqlar she'riyatida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan murabba' janrining va bugungi kunda bu janrda yaratilgan badiiy asarlarning insonparvarlik ruhidagi tarbiyaviy ahamiyatini kitobxonlarga, o'quvchilarga yetkazish, tushuntirish. Bu jarayonni Abdulla Oripov hamda Muhammad Yusuf va boshqa shoirlar ijodi bilan bog'lab, tahlil qilish. Komil insonni tarbiyalashga e'tiborni qaratish.

Ishning joriylanishi (aprobatsiyasi).

Amaliy tilshunoslik, o'zbek tili va adabiyot o'qitish metodikasi kafedrasida ish rejasiga kiritilgan.

Ishning tuzilishi va hajmi. Kirish, ikki bob, xulosa va adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ish __ sahifadan tashkil topgan.

I BOB

O‘ZBEK MUMTOZ ADABIYOTIDA MURABBA’ SHE’R JANRI VA U BO‘YICHA QILINGAN ISHLAR TAHLILI

O‘rta asrlar adabiyotining poetikasi va janr tarkibini o‘rganish ishiga e’tibor asosan Ulug’ Oktyabr inqilobidan so‘ng, aniqrog‘i 20-yillardan boshlab kuchaya bordi. She’riy shakllar nazariyasi xususan, A.Fitrat, A.Sad’iy, A.N.Samoylovich, O.Sharofiddinov, S.Ayniy, V.Zohidov, V.Abdullayev, H.Zarifov, Izzat Sulton, H.Yoqubov, A.Hayitmetov, N.Mallayev, A.Qayumov, R.Majidiy, B.Valixo‘jayev, R.Orzibekov, A.Abdug‘afurov, Yo.Isxoqov, I.Haqqulov, A.Nosirov, L.Zohidov va boshqa olimlarimizning asarlarida kengroq tadqiq etildi.¹⁾ Shu xildagi tadqiqot klassik murabba’ shakli va uning o‘zbek adabiyotidagi an‘analari borasida ham yuzaga keldi. A.Qayumov “Qadimiyat obidalari” asarida, A.Hayitmetov “Barhayot chashma” kitobiga kirgan “Qadimgi turkiy she’riyat haqida” maqolasida, G’.Karimov “Muqimiy”, N.Shukurov “Uslublar va janrlar”, V.Mo‘minova “O‘zbek demokratik adabiyotida lirika” monografiyalarida, R.Orzibekov, “O‘zbek klassik adabiyotida murabba’” risolasida bu shaklning o‘rta asrlar adabiyotidagi, shuningdek, o‘zbek adabiyotidagi o‘rniga g‘oyaviy-badiiy qimmatini haqida so‘z yuritganlar. Ularda bu shakl poeziyasi, poetikasi va taraqqiyotini chuqur o‘rganishga ko‘maklashuvchi, tayanch nuqtasi bo‘lib xizmat qiluvchi fikrlar bor albatta.

Ammo murabba’ yaxlit bir ilmiy-tadqiqot ishning mavzusi bo‘lgan emas. Shu sababli ham bu she’riy shaklni monografik aspektida tadqiq etish adabiyotshunoslik oldidagi muhim vazifalardan biridir.

Ma’lumki, to‘rtlik shakli turkiy tildagi og‘zaki she’riyat orqali ozarbayjon, turkman, uyg‘ur adabiyotida yetakchi she’riy shakllardan bo‘lib, keldi. U o‘zbek xalq og‘zaki ijodida, yozma adabiyotimizning to‘ng‘ich namoyandalaridan sanalmish Ahmad Yassaviy ijodida ham hokim formalardan biri sifatida

1. N.Komilov. Tasavvuf. 1-kitob. T.: Yozuvchi. 1996 yil. 2. I.Haqqul. Tasavvuf va she'riyat. T.: 1991 yil. 3. Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. T.: 1992 yil. 4. A.Qayumov. Qadimiyat obidalari. T.: 1972 yil. 5. M.Ibraximov. O'zbek sovet poetikasi janrlarining tarkib topishi. T.: Fan, 1983 yil. 224 bet.

shakllanadi. Ahmad Yassaviydan so'ng bu xalqchil formaga turli davrlar shoirlari – Mashrab, Uvaysiy, Avaz O'tar o'g'li, Mirzo Xayrullo, Isoqxon Ibrat, Oraziy, Sidqiy Xondayliqiy (Shavkat) va boshqalar murojaat etishib, uning musammat – murabba' shaklidagi original namunalarini yaratdilar.

To'rtlik she'rlarning turli xil qofiyalanish namunalari, jumladan, bu janrning klassik poetik talablariga javob bera oladigan namunalari o'zbek shoirlarining barcha avlod vakillari tomonidan ham yaratildi va yaratilmoqda. Bu esa klassik poeziyaning g'azal, muxammas, ruboiy tuyuq, marsiya, qasida shakllari qatorida murabba' she'r shakli ham barhayot san'ana sifatida yashab kelayotganligini ko'rsatadi. Lekin shunday bo'lsa-da, hali adabiyotshunoslikda bu shaklning lug'aviy ma'nosi to'g'risida aniq fikr yo'q. Chunonchi, 1967-70 yillarda nashr etilgan “Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati”da “murabba' (to'rtlik, to'rtburchak so'zidan) klassik poeziyadagi qofiyalanish tartibiga qarab tuzilgan shakllardan biri. Murabba'da har bir band to'rtliklardan iborat bo'ladi, boshda to'rt misraning bir xil qofiyalanib, to'rtinchi misralarning birinchi bandidagi misraga qofiyadosh bo'lishini talab qiladi” deb yozilgan. Murabba'ga berilgan bu ta'rif to'la emas. Vaholanki, biz Muqimiyda murabba'ning ikki xil qofiyalanish tartibini uchratamiz. Ta'rifda murabba'larning boshqa to'rtlik she'rlardan farqi, vazni ko'rsatib o'tilmagan. “Adabiyotshunoslikdan qisqacha ruscha-o'zbekcha terminologik lug'at” kitobida esa murabba' (chetverostihiye) – Sharq poeziyasida “Har bir bandi to'rt misradan tashkil topgan klassik she'r shakllaridan biri” deb atalgan, xolos.

“O'zbek demokratik adabiyotida lirika” risolasining muallifi V.Mo'minova “Murabba'ning kelib chiqish tarixi, ya'ni birinchi marotaba qaysi adabiyotda va qachon, qaysi asrdan boshlab qo'llangani hali adabiyot tarixida yechilmagan muammolardan biridir. Murabba' o'zbek adabiyotida ikki yo'l bilan, birinchidan, xalq og'zaki ijodining ta'siri natijasida, ikkinchidan, adabiy aloqalar ta'sirida,

xususan, Muhammad Fuzuliy ijodi orqali XVI asrdan so‘ng paydo bo‘lgan bo‘lsa kerak” deb yozadi.¹⁾

1. V.Mo‘minova O‘zbek demokratik adabiyotida lirika. Toshkent, “Fan” 1979.

Nazarimizda, bu fikr bir muncha haqiqatga yaqindir. Chindan ham murabba’ she’rlarining o‘zbek adabiyotidagi paydo bo‘lish chshmalari xalq og‘zaki ijodidagi to‘rtlik qo‘shiqlrga borib bog‘lanadi. Biroq muallifning “... ikkinchidan, adabiy aloqalar ta’sirida, xususan, Muhammad Fuzuliy ijodi orqali XVI asrdan so‘ng paydo bo‘lgan bo‘lsa kerak” degan fikr taxminligicha qoladi. Holbuki, Ahmad Yassaviy “Devon” idagi aruzga ham tushadigan strofik band.

Demak, murabba’ she’riy shaklining paydo bo‘lishi va shakllanish taraqqiyoti to‘g‘risida bahslashish, aniq ilmiy-nazariy xulosalarga kelish uchun asos bor. Ushbu risola ham ana shunday maqsad bilan yuzaga keldi.

MURABBA' VA UNING QADIMGI TURKIY SHE'RIYATIDAGI NAMUNALARI

Murabba' – to'rtlik she'r navining o'ziga xos shakllanish va inkishof tarixi bor, u poeziyaning eng qadimgi formalaridan biridir. Uning paydo bo'lishi, shakllanishi va taraqqiyot yo'li ko'p olimlarning diqqatini o'ziga tortgan va ularning asarlarida muhim ilmiy fikrlar, faraziyalar ilgari surilgan. Turkiy tillardagi qadimiy obidalarni, jumladan, XI asrda yaratilgan ikki muhim va monumental asarlar – “Devoni lug'otit turk” va “Qutadg'u bilig” asarlarini tadqiq etgan Brokellman, A.Fitrat, Ye.E.Bertels, S.Mutallibvov, A.M.Shcherbak, A.P.Qayumov, A.Hayitmetov, I.V.Stebleva, X.Rasulov, B.To'xliyev kabi olimlar to'rtlik she'riyatining eng qadimgi formalaridan biri ekanligini tasdiqlaydilar. Xususan, I.B. Steblevaning “VI-VIII asrlarda turkiy poeziya”, “XI asrda turkiy poetik formalarining rivojlanishi”, A.Q.Qabmovning “Qadimiyat obidaları” asarlarida to'rtliklarning genezisi, poetikasi, adabiy-estetik qimmatli masalalari maxsus tarzda keng tekshirilganligini va qimmatli fikrlar bayon qilinganligini qayd etish lozim. I.V.Stebleva qadimgi she'riyatning ancha qismi og'zaki ijod, ba'zilar esa yozma adbiyot mahsuli ekanligini isbotlab, turkiy xalqlar XI asrgacha ham shakllangan yozuv adabiyotiga, bunday adabiyotni maydonga keltirgan shoir-adiblarga ega bo'lganligini, ular arab va fors tilidagi poeziya, jumladan, xalq og'zaki ijodi ta'sirida murabba' qo'shiqlar, lirik parchalar, marsiya, qasida va munozaralar yaratganliklarini, barmoq vazni bilan bir qatorda aruz vaznini qo'llash holatlari “Devoni lug'otit turk” hamda “Qutadg'u bilig”da ko'zga tashlanishini uqtirib o'tadi.

Professor Ye.E. Bertels ham arabcha “murabba'” termini bilan yuritiladigan, har bir banddagi qofiya tartibi a-a-a-b; v-v-v-b; g-g-g-b shaklida keladigan strofik forma turkiy xalqlar folklorida tez-tez uchrab turadigan to'rtliklarning o'ziga xos ko'rinishidir” deb yozgan edi.

A.M.Shcherbek to'rtlik qadimdan rivojlanib kelgan va bandlar asosiga qurilgan she'r na'vi ekanligini, "Devoni lug'otit turk" dagi poetik tekstlarning qariyb yetmish foizini shunday she'riy parchalar tashkil qilishini ta'kidlaydi. A.Qabmov ham bu haqda fikr yuritib, shunday "yozadi: "Bu she'riy parchalar mazmun jihatidan xilma-xildir, ularda janglar, qahramonlar tasviri, sevgi tuyg'ulari, tabiat manzaralari, turli-tuman holatlarga oid o'git-nasihatlar, zamon va kishilarga munosabatni bildiruvchi she'rlar bor. She'rlar barmoq vaznida, nihoyatda fikr va so'zga zich shaklda yozilgan. Vazn va qofiyalarda izchil qonuniyat qattiq saqlangan. Badiiy vositalarda, ifodalarda o'ziga xoslik va ta'sirchanlik zo'r. Umuman, bu she'rlarning asl nusxasida o'sha davrda mavjud bo'lgan ijodga nisbatan yuksak talabchanlik aniq sezilib turadi, bu she'rlarni yaratgan shoirlarning juda ma'lumotli bo'lgani, nafis va chuqur badiiy didga ega ekani aniq ko'rinadi.

To'rtlik turkiy xalqlarning epik asarlarida ham qo'llanib kelingan. Biz shunday to'rtlik namunalarini Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Ahmad Yugnakiyning "Hibbat-ul haqoyiq" didaktik dostonlaridahan uchramiz. "Devoni hikmat"da ham g'azallar qatorida murabba' she'rlar mavjud. Ular ichida barmoq vazniga tushuvchi, v-v-v-b tarzida qofiyalanuvchilari anchagina. Bular "Turkiy so'zlar devoni" (M.Qoshg'ariy)dagi parchalar tuzilishini eslatadi.

Bunday to'rtliklarning har bir xalq og'zaki ijodida xilma-xil shakllari bor. Masalan, birgina ozarbayjon adabiyotida shunday to'rtliklarning qo'shma, tajnis, bayoti, mahni, kerayli kabi xalq she'riy shakllari, ruboiy, murabba', tarbi kabi kitobiy shakllari bor.

To'rtliklarning turkiy xalqlar og'zaki she'riyatida qo'shma, tajnis, bayoti, mahni, sharqiya, o'lan kabi shakllari mavjud bo'lib, ular kitobiy poeziyadagi – ruboiy, tuyuq, tarbi kabi formalarning shakllanishida muhim rol o'ynaganligi ma'lum. Aftidan, Ataulloh keltirgan murabba'lar shu shaklning kitobiy poeziyada paydo bo'lgan ilk namunalaridir. U hali "texnik poeziya" ga xos elementar, shakliy alomatlar ta'siridan holi bo'lmagan. Keyinchalik xalq sirida bu xil kitobiy murabba'lar ham reformasiyaga uchrab xalqchil bir holatga ko'chgan. Biroq, u xalq to'rtliklaridan musammatlarga xos bandlar tizmasiga ega bo'lishi, qofiyalanishi,

taxallus ishlatilishi, aruz vaznlarida yozilishi bilan doim farq qilib kelgan. Shuning uchun bunday she'rlarga nisbatan "murabba'" istilohini qo'llash ma'quldir.

She'rda aynan takrorlanadigan misra yoki misralar o'tmish poetikaida "muqarrar, tarje", hozirgi zamon adabiyotshunosligida esa "refren" terminlari bilan ataladi. Refren va batlar o'zbek lirik poeziyasining g'azal, murabba', muxammas, musaddas, musamman, mutassa' va muashshar kabi band shakllarida yozilgan she'rlardagina emas balki tarje'band va soqinomalarda ham, xalq og'zaki ijodi janrlari bo'lmish qo'shiq va termalarda ham mavjud. Musammat bandlarida bir misra yoki baytning muttasil takrorlanib turishi asosida yaratilgan asarlar, ayniqsa, XVI-XIX asrlarda yashab ijod etgan, o'zbek shoirlari ijodida ko'p uchraydi. Huvaydo, Mashrab, Ogahiy, Komil Xorazmiy, Avaz va Muqimiylar ijodida bu xildagi she'r namunalari anchagina. Mashrab ijodida "Yorga yetar kun bormu yoronlar?", "Ey bod, yetkur yora salomim" tarzida takrorlanuvchi ikki murabba'si yuqoridagi fikrimizga mos keladi. Masalan:

**Bulbuldayinkim faryod etarman,
Ishq daftarini bunyod etarman,
Ko'ngullarimni men shod etarman,
Yorga yetar kun bormu yoronlar?.**
**Shami, firoqing ko'ksunda yondi,
Ko'z yoshim oqib bag'rimga tom-di,
G'aflatda qolgan Mashrab uyg'ondi,
Yorga yetar kun bormu yoronlar?.**

Ikkinchi she'r esao'n bir banddan iborat bo'lib, har bandining so'ngida "Ey bod, yetkur yora salomim" misrasi takrorlanib keladi.

Ogahiyning "Nigirim, mehribonim, makrimat taxtida sultonim", Komil Xorazmiynnig "Shahim, rahm aylag'il, holimg'a hangomi muruvvatdir", Avazning "Bahor ayyomi sayri bog' etarga, ey sumanbar, kel" misralari bilan boshlanuvchi 9 naqoratli murabba'larini ham misol sifatida keltirish mumkin. Muqimiy ijodida ham ana shunday usulda yozilgan bitta murabba' bor. Murabba' sakkiz banddan

tashkil topgan bo‘lib, ishqiy mavzuda bitilgan. Har bir banddan so‘ng “Ko‘rdim yuzingni alhamdulilloh” misrasi takrorlanadi. Masalan, birinchi bandi.

**Jono, buldurkim rozi nihonim,
Yetmaklik erdi senga gumonim,
Nogoh ramaqqa yetkanda jonim,
Ko‘rdim yuzingni alhamdulilloh.**

Xamzaning “Yashil gul” ashula to‘plamidagi bir qator murabba’lar ham yuqoridagi shaklda yozilgan. Ma’lum bo‘ladiki, shoirlar misra takrorini murabba’ she’rda ifodalanmoqchi bo‘lgan fikrni alohida ta’kidlab borish, bandlar o‘rtasida mazmun o‘zagi yuzaga keltirish, kompozision yaxlitlikka erishish maqsadlarida qo‘llaganlar. Binobarin, “Adabiyotshunoslik terminlari lug‘ati” da to‘g‘ri qayd etilganidek, murabba’ deyilganda klassik poeziyadagi qofiyalanish tartibiga qarab tuzilgan va har bir bandi to‘rt misradan iborat bo‘lgan she’r shakli tushunilgan. Undagi birinchi banddagi to‘rtala misra bir xilda a-a-a-shaklida, keyingi bandlaridagi 1-2-3 misralar bir xilda qofiyalanib, to‘rtinchi misralar esa birinchi banddagi misra bilan (b-b-b-a, g-g-g-a kabi shaklda) qofiyadosh bo‘ladi. Murabba’ning tuzilishiga aloqador bunday xususiyatlar “Turk she’r tuzilishi asoslari” kitobida ham qayd etilgan. Unda murabba’ a-a-a-b, v-v-v-b, g-g-g-b tarzida qofiyalanuvchi she’r shakli ekanligi aytilib, Ogahiyning “Jamoling shavqida yoqdi falakni o‘tlug’ afg’onim” misrasi bilan boshlanuvchi mashhur murabba’sidan ikki band keltiradi.

Murabba’ning o‘ziga xos yana boshqa qator janriy belgilari bor. Bular haqida ilmiy adabiyotlarda durustroq ma’lumotlar berilgan emas. Lug‘atga doir manbalarda ham, ilmiy asarlarda ham to‘rtlik she’r bilan musammatning bir turi bo‘lgan murabba’ farq qilinmaydi, ular aralashtiriladi. Musammat yozish qoidasiga ko‘ra, she’rning har bir bandi uchta, to‘rtta, beshta va undan ortiq qofiyalangan misralarni o‘z ichiga oladi va bandlardagi misralar soniga qarab musallas (3), muxammas (5), musaddas (6), musadda’ (7), musamman (8) va hokazo nomlar bilan aytiladi.

Musammat silsilasidagi bu xil she'rlarni bir-bir bilan birlashtiruvchi umumiy nuqtalarni bo'lib, ular quyidagilardan iboratdir:

1. Ularning hammasi g'azalga xos qofiya tartibiga ega, turli hajmdagi misralarni jamlovchi bandlardan tashkil topadi.

2. Musammatlarning hamma xillarini ulardagi bir xil qofiya sistemasi birlashtiradi (a-a-a-a-a, b-b-b-b-a, v-v-v-v-a v. h.).

3. Musammatlar g'azallarga o'xshab aruz bahrlarining turli vaznlarida yozilishi mumkin. Unda tuyuq, ruboiy yoki mustazodlar uchun belgilangan vazn turg'unligi yo'q. Har bir musammatda uning uchun tanlangan vazn boshdan oxirigacha saqlanadi.

4. Musammatning har bir shakli misralar hajmiga ko'ra ikkinchisidan bandlarida bir misra ko'p bo'lishi bilan farqlanadi.

5. Musammat shakllarining hammasida shoir taxallusi ko'rsatiladi.

Musammatning barcha turlariga xos umumiy xususiyat shundaki, ulardagi birinchi bandlar hamma vaqt o'zaro qofiyadosh misralardan tashkil topib, keyingi bandlarning bir yoki ikki misrasi birinchi bandlar bilan qofiyadosh bo'ladi.

Biroq, biz Muqimiy murabba'larida ikki turli qofiya tartibini uchratamiz. Ularning birinchi a-a-a-a, b-b-b-a, v-v-v-a tarzida, ikkinchisi esa b-b-b-a, v-v-v-a, g-g-g-a tartibida qofiyalanadi. Birinchi xil qofiyalanishga "Parvo qilmading" murabba'si misol bo'la oladi.

To o'zingni mahfil aro qilmading,	-a
Oshiqlarni zoru shaydo qilmading,	-a
Dillaringni sangi xoro qilmading,	-a
O'ldim dedim hargiz parvo qilmading,	-a
Avvalida jonon ko'zing ko'rsatib,	-b
Abro' kamon mijgonlaring o'q etib,	-b
Masihaga jon baxshlik o'rgatib,	-b
Jurmim nadur, nazar aslo qilmading.	-a

“Osholig’ing yodimga tushdi” murabba’si esa ikkinchi xil qofiyalanish usulida yozilgan:

Arzim eshit, ayo sarvi ravonim,	-b
Hajr o’tig’a quyub o’rtandi jonim,	-b
Nogah oinaga boqtimki xonim.	-b
Mahvi hayroningiz yodimga tushdi,	-a
Bog’da ko’rib har yon ochilgan gullar,	-v
Farshi mahmul yerda sabzi sunbullar,	-v
Sunbul men xush aylabon ko’ngullar,	-v
Zulfi rayhoningiz yodimga tushdi.	-a

Murabba’ musammatning boshqa shakllaridagidek g’azalga nisbatan kengroq imkoniyatlarga ega. Shuning uchun bu formada yozilgan ayrim asarlar, jumladan, Muqimiyning “Sayohatnoma”si, Zavqiyning hajviy ruhdagi “Talading baring” “Obid mingboshi haqida hajviya” asarlari syujetli, liro-epik plandagi asarlarga xos xususiyatlarga egadir. So’nggi yillarda topilgan Furqatning “bo’ldi” radifli 20 bandli murabba’si manzum murabba’dir. Ammo murabba’larda birinchi banddagi misralarning o’lchovi qolgan bandlarda aynan bir xil bo’lsa ham birinchi bandning qofiya tartibi bilan boshqa bandlarning qofiya tartibi o’zaro farq qiladi.

Murabba’ sherlar poetikasi butunlay o’zgarmay qolgan hodisa emas. U musammatlar poetikasidagi o’zgarishlar jarayonida qisman reformasiyani boshdan kechirgan. Ayniqsa, hozirgi zamon murabba’chiligida bu holni kuzatish mumkin. Lekin unda baribir formaning aniq qoida qonunlari mavjud. Ammo, shunga qaramasdan, murabba’ning erkinliklari, g’azaldagiga nisbatan ancha ko’proqdir. Murabba’da birinchi bandning vazn tuzilishi, turoqlari qanday bo’lsa, qolgan bandlarda ham shu o’lchov saqlanadi. G’azaldagi kabi birinchi bandagi qofiyadoshlik, radif, jumla konstruksiyalarini keyingi bandlarda saqlash talab qilinmaydi. Bandlar formal belgilar bilangina emas, balki poetik mazmun jihatidan o’zaro birikadi.

Musammatning boshqa shakllarida bo'lgani kabi murabba'da ham bandlar sistemasi katta rol o'ynaydi. "Misralarning mazmunan yaxlitlangan, she'r musiqiyligi va ritmni tashkil etishda qatnashuvchi, qofiyali she'rlarda muayyaan qofiya tartibiga rioya qilingan, bir me'yorda va tartibli qaytalanuvchi, vazn jihatidan aloqador, sintaktik va intonasion jihatdan tugal janrlarni shakllantirish bilan ham bog'liq bo'lgan uyushmasi band deyiladi. She'riy shakl va uning elementi bo'lgan band ham mazmunan shakllantirishda qatnashadi, uni tashkil etadi, muayyan tartibga soladi va qoliplaydi. Uning turlari ko'p. Biroq musammatlarda bandlarning roli ayricha ahamiyat kasb etadi muhim g'oyaviy estetik funksiyani bajaradi. Musammatlardagi har bir band she'rdagi boshqa bandlar bilan bog'liqlikda yashaydi va unda asardagi asosiy mazmunning zarur bir elementi ifodalangan bo'ladi. Binobarin, musammat avtori bunda ritm, vazn, qofiya bilangina so'zlab qolmasdan, misralar va bandlar bilan ham so'zlaydi. Muallif muhimroq sanalgan biror fikrni avvalgi bandeda bayon qilib, asosiy mavzu maqsadga ishora qilib, keyingi bandlarda bi fikrni rivojlantirish lozim. Murabba'da ham shunday. Qayd etmoq lozimki, ikkilik (masnaviy) va to'rtlik (murabba') bandlar qadimgi o'zbek (turkiy tilli xalqlar) poeziyasining eng eski shakllaridan bo'lgan. So'ng bu siraga beshlik, oltilik, yettillik, sakkizik, to'qqizlik va o'nlik band turlari qo'shila borgan. Shu ma'noda to'rtlik murabba' she'r tuzilishining asosiy elementlaridan bo'lib, u ifodalanadigan mazmunning shakllanish tarzidir. Chunki bandni mazmun tanlaydi. Murabba'larda bandlar tizmasiga katta funksiyai yuklangan. Unda ayrim epik lavhalarni ifodalash imkoniyatlari ham bo'ladi.

Shunisi taajublanarliki, ayrim adabiyotshunoslar murabba' bilan to'rtlikni bir forma deb hisoblaydilar. Albatta, lirik poeziyada murabba' formasining paydo bo'lishi va shakllanishida to'rtlikning ta'siri bo'lgan. Lekin poetik mazmunni ifodalash usuli hamda formal-poetik xususiyatlarga ko'ra murabba' bilan to'rtlik bir-biridan farq qiladi. Ularning har bandi to'rt misradan iborat bo'lsa-da, qofiyalanish tartibi har xildir. To'rtliklar bir-biridan tafovutlanuvchi qofiya tuzilishiga egadir. Masalan:

**Ko'rsatma chamanda sarvi yo'ldosh manga,
Kim, ko'rganidan ko'zdan oqar yosh manga,
Indursa na bo'ldi har nafas bosh manga,
Ul sarvi ravonki, bo'ldi bo'ydosh manga.**

*** * ***

**Ul sho'xki bir dam anga hamdam bo'lmas,
Zahm ura firoqi vasli marham bo'lmas,
Ishqida ko'ngul nasibi juz g'am bo'lmas,
Ko'ngul ko'taray desam, ko'ngul ham bo'lmas,**

**Ey charxi jafogar, ne sitamlar qilding,
Jonimni nishonai olamlar qilding,
Muhling nafasim o'tin olamlar qilding,
Uzrungni nechuk qulay, karamlar qilding.**

Ko'rinadiki, bu to'rtlik formal jihatdan ruboiyni esalatadi, undagi har bir to'rtlikda boshqa-boshqa mazmun, shuningdek qofiya tartibi bor. Murabba'lardagi bandlar o'rtasida esa fikriy sterjan, shakliy o'xshashlik kuchli. U o'zining shu xususiyatlariga ko'ra ruboiy va tuyuqlardan ham ajralib turadi. Ruboiy bilan tuyuq asosan bir-biridan vazn e'tiboriga ko'ra farq qilsa-da, ular o'rtasida mushtaraklik ustundir. Chunonchi:

1. Har ikkalasi ham to'rt misralik mustaqil she'r.
2. Har ikkalasi ham a, a, b, a, va goho a-a-a-a shaklida qofiyalanadi.
3. Har ikkisida ham tajnis ishlatilishi mumkin. Masalan, ruboiy-tuyuqlarda shunday. Bunday she'rlarda ruboiy va tuyuq xususiyatlari ko'shilib ketadi.
4. Mavzu jihatidan ham ular bir-biriga juda yaqin, biroq ruboiyda falsafiy didaktik ruh birmuncha kuchli.
5. Kompozision qurilishi ham asosan bir xil. O' u bilan birga tuyuq quyidagi farqlarga ham ega:

a). Agar ruboiy aruzning “ahram” va “aqrab” shajaralaridagi 24 vaznda yozilsa, tuyuq faqatgina ramal bahrining “ramali musaddasi maqsur yoki maqzuf” vaznida yozilishi kerak.

b). Mavzu doirasiga ko‘ra ruboiy imkoniyatlari keng, tuyuqniki esa asosan oshiqlik maylari, yumor va so‘z o‘yinlarining tovlanish bilan bog‘liq kechinmalar doirasidadir.

Murabba’larda g‘azal va muhammaslarda bo‘lganidek, oxirgi badda shoirning taxallusi qo‘yiladi. Ruboiy va tuyuqda esa bunday emas.

Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘otit turk” asarida qadimgi turkiy xalqlar og‘zaki ijodidagi murabba’ shaklidagi she‘rlarning yaxshi namunalari berilgan. Lekin, 60-yillargacha yaratilgan qator ilmiy adabiyotlarda “Devoni lug‘otit turk”da keltirilgan to‘rtlik xalq og‘zaki ijodi namunalari sifatida biryoqlama talqin qilingandi. Bunday chala yondashishlar A.Hayitmetov, A.Qayumov, I.Stebleva, B.To‘xliyev kabi qadimgi turkiy she‘ryatni tadqiq etgan olimlar ishlarida betaraf etildi. Mavjud to‘rtliklarning ayrimlari xalq ichidan chiqqan shoirlarning qalamiga mansubligiga e‘tibor qaratildi. Chindan ham, garchand Mahmud Qoshg‘ariy bu to‘rtliklarning avtorlarini aniq ko‘rsatib o‘tmagan bo‘lsa-da, ma‘lum to‘rtlik u yoki bu konkret shaxs ijodiga mansubligiga ishoralar qiladi, ya‘ni “shoir deydi” iborasini ishlatadi. Hatto Chuchu ismli shoir nomi ham keltiriladi. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkin: Mahmud Qoshg‘ariy to‘rtliklarni unga ma‘lum bo‘lgan yozma manbalardan olgan.

“XI asrda turkiy xalqlar orasidan, - deb yozadi professor A.Hayitmetov. – Mahmud Qoshg‘ariydek yuksak bilimdon olimning yetishib chiqqanligining o‘zi ham bu davrda ma‘lmu bir ziyolilar, olimlar doirasi bo‘lganligidan dalolat beruvchi muhim bir faktdir. Bu esa bizga turkiy xalqlarda yozma adabiyot XI asrdan ancha oldin VI - VII asrlardan boshlab bo‘lgan deyish uchun asos beradi. “Devon”da keltirilgan faktlar turkiy xalqlarning his va tuyg‘ularini she‘riy til bilan ifodalaganlar.

“Devon”da juda ko‘p to‘rtliklar keltirilgan. Ularda hayotiy-maishiy lavhalar, qabila va urug‘larning urf-odatlarini, marosimlari tabiat fasllariga munosabati, ishqiy-

intim tuyg'ulari, yutuqva fojialari, tashvish va quvonchlari aks ettirilgandir. Ularda o'sha davrlar ijtimoiy hayotining turli sohalariga oid sodda, real, samimiy hiskechinmalar mavjud. Bularning ko'plari xalq, ko'plari ularning zukko, so'zga chechan shoirlari tomonidan yaratilgan bo'lib, qo'shiqlar sifatida mashhur bo'lib ketgan bo'lishi mumkin. Qarangki, bu to'rtlik-qo'shiqlar ilohiy illyuziyalardan, ortiqcha murakkab tasvirlardan holi. Tili hozirgi kitobxonlarga bevosita unchalik tushunarli bo'lmasa-da, mo'jaz qurilmaga, sodda va musiqiy she'r tizmalariga ega ekanligi, mazmunan mag'zi to'la, real lavhalar holatida ko'zga tashlanishi jihatidan kishini hayratlantira oladi. Ularda chiroyli va jonli tasvirlar, qiyoslar, bo'yoqlar ishlatiladi.

Yashin aytib yashnadi,

Tuman turib tushnadi,

Azg'ir, qisir kishnadi,

Ugur alib o'qrashur.

Chaqmoq otilib chaqnadi,

Bulutlar qo'zg'alib yura boshladi.

Azg'ir, qisir kishnay ketdi,

Hammasi davra olib o'ynashardi.

“Devonda” didaktik mavzulardagi, vatandoshlarni yovuzlikka qarshi chiqishga undovchi, ezgulikni olqishlovchi to'rtliklar ham ancha. Bu holat turkiy didaktik adabiyotning oziqlanish manbalari ham qadimiyligidan dalolat beradi. Ularda urug' va qabilalarning homiylar, qahramonlari madh etiladi, mehnatsevarlik, insoniylik ulug'lanadi.

Didaktik ma'no tashiydigan qo'shiqlarning ba'zi bir namunalari o'zbek xalq dostonlarida mavjud an'anaviy motiv-ota nasihatlariga o'xshab ketadi.

Baqmas budun savuq so'z,

Yulqi, yuzi saranqa

Qazg'an ulich tuzunlik,

Qalsun chaving yarinqa.

Mazmuni:

**Boqmas jahon sovuq so‘z,
Shilqim, yuzsiz, baxilga,
Yoqimli bo‘l, xushxulq bo‘l,
Qolsin noming ko‘p yilga.**

Ko‘rinib turibdiki, devondagi murabba’ she’rlar poetik formaning aniq qoida – qonunlariga amal qilib yozilgan. Murabba’da birinchi misra bilan uchinchi, ikkinchi misra bilan to‘rtinchi misra o‘zaro qofiyalangan.

“Devoni lug‘otit turk”da Alp Ertungi ismli xalq qahramoni va himoyachisini madh etuvchi qasida-marsiya hamda yoz bilan qish o‘rtasidagi bahsni tasvirlovchi to‘rtlik-munozaralar ham borki, bular ham ajdodlarimiz og‘zaki va yozma she’riyatining janr jihatidan durustgina jozibaga ega bo‘lganligini isbot etadi. Olimlarimizning juda haqli qayd qilishlaricha, o‘rta asrlar turkiy xalqlar she’riyati qadimgi she’riyatdagi ana shu an‘nalarning davomi bo‘ldi, undagi stabillashgan janr va badiiy-tasviriy vositalarni yanada rivojlantirdi.

O‘tmish madaniy yodgorliklarda maqollar ko‘plab uchraydi, Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘otit turk” asarida keltirilgan maqollarda o‘sha zamon ruhi, dunyoqarashi, kishilarga, mehnatga munosabatning turli xil shakllari o‘z ifodasini topgan. Maqollar o‘z kompozision jihatdan nihoyatda sodda va ixcham. Ko‘pchilik maqollar she’riy formada kelib, ba’zan bir misra yoki bir baytdan, ba’zan esa to‘rt misradan tashkil topadi.

Quyidagi maqollar to‘rtlikda ifodalangan.

Bog‘di boqsang, bog‘ bo‘lar,	a
Botmon – dahsar yog‘ bo‘lar,	a
Boqimsiz bog‘ tog‘ bo‘lar,	a
Yurak bag‘ring dog‘ bo‘lar,	a

Yosh semiz eshakdan	a
Yag‘ir bo‘lsa ham, ot yaxshi	b
Qadr bilmas qarindoshdan	a

Yaqindagi yot yaxshi

b

Yolg'on aytib foyda ko'rsang,	a
Oxiri zarar toparsan.	b
Rost aytib zarar ko'rsang,	a
Oxiri foyda toparsan.	b

Xullas, she'riy formada bitilgan maqollar. Xalq ko'shiqlari, ruboiy va tuyuqlar singari murabba'larning shakllanishiga ham zamin bo'lgan deyish mumkin. Shunday omillardan yana biri turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan o'lan – qo'shiqlardir.

O'lanlarning shakli turlicha bo'ladi. Qo'shiqlarga xos variantlilik o'landa ham bor. O'lanlar kuylanganda mantiqiy izchilikka amal qilinadi.

Qiz: **Bulbullarning ko'ngani gul bo'ladi,**
 Olamdagi bo so'zni til biladi.
 Taraf bo'lib aytmoqqa kepsiz ana,
 Oxunliging bu yerda kim biladi.

Yigit: **O'lan aytsam, barchani kuydiraman,**
 Jiyranchani mehmonga mindiraman,
 Qiziq-qiziq o'landan ayt, oxun qizi,
 Oxunligim shu yerda bildiraman.

Qiz: **Kiygan to'ning yarashgan bo'yginanga ,**
 Men bilmadim ne so'z bor o'yginanga,
 Birda-ikkida to'yda atmasang,
 Indamasdan borib yot uyginanga.

Yigit: **Ko'yim yonib boraman o'tdan o'tga,**
 Jabduq salla yarashar to'riq otga.

**Ikkovindan biringni loyiq ko'rsa,
O'tqazdirib qo'yarman saltanatga.**

Ko'rinadiki, bu o'landa musobaqadoshlar bir-birlarini yengishga harakat qiladilar. O'lanlar yoshlarni badiiy-estetik didli, xush qiziqli, kamtarin, ochiq ko'ngilli, do'stga sadoqat ruhida tarbiyalashda, ayniqsa, katta ahamiyatga egadir. O'lanlarning asosan 1,2 va 4-misralari qofiyalanib, 3-misrasi ochiq qoladi. Har bir to'rtinchi misralari ko'pchilik hollarda qofiyalanmaydi. Biroq o'lanning murabba'larga xos asosiy xususiyati to'rtliklarning mantiqiy izchlikka ega bo'lganligidir.

Laparlar ham, asosan to'rtliklardan tashkil topib, voqeabandligi, diolog shaklida ikki tomon bo'lib ijro etilishi bilan xarakterlanadi. Bu jihatdan ular o'langa o'xshasa-da, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, tasvir obyektlari, unda kuylangan hayot tarzi, obrazli firk yuritish darajasi bilan bir-biridan ajralib turadi. Ya'ni laparlar ko'pincha hazil-mutoyiba, piching, qochiriq, ramz, shama qilish, noz-karashma, araz, zarda, tengsizlikdan, shum taqdirdan zorlanish, alam, iztirob, quvonch, xushchaqchaqlik, g'oyat teran, murakkab ruhiy kechinmalar, his-hayajonlar, serzavq musiqiy satrlarda ifodalanadi. Masalan:

**Qoshingning qorasiga qotgin mani,
Oshiqlik bozorida sotgin mani,
Oshiqlik bozorida olmasalar,
Kiprigingni o'q qilib otgan mani.**

Qo'shiq so'zini biz XI asrning filolog olimi Mahmud Qoshg'ariyning mashhur asari "Devoni lug'otit turk" kitobida uchratamiz. Mahmud Qoshg'ariy tomonidan chigil, qipchoq kabi qabilalar orasida to'plangan qo'shiqlar yordamida o'zbek yozma adabiyotining yuzaga kelishi va taraqqiyoti uchun lozim bo'lgan adabiy zaminning bir qismini qo'shiqlar tashkil etganini aytish mumkin. To'rtliklarda rivojlangan xalq qo'shiqlari el orasida qadimdan kuylanib kelmoqda.

She'riyat qonunlarining qo'shiqqa xos tomoni soddalik, tabiiylik rivojlanganligidadir. Umuman to'rtlikda rivojlangan qo'shiqlarda ortiqcha pardozi bo'lmaydi. Zero, xalq og'zaki ijodida soddalik, tabiiylik, hayotiylik ustun turadi.

Xorazm qo'shiqlarining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, bir qancha hollarda to'rtliklar murabba' shaklida, ya'ni to'rtlikning oxirgi misrasi har bandda takrorlanadigan, mazmunni bir-biriga ulaydigan bo'ladi. Monolog shaklida aytiladigan biror voqea natijasida kelgan musibat, kulfat yoki muhabbat kechinmalari, shu hodisaning sababchilari hayajon bilan tarannum etilganda takror yuzaga keladi. Musiqiylik ham shu takorni talab qildi. O'lar bo'ldik bu xonlarning dardidan" qo'shig'ini olib ko'raylik.

**Asfandiyor xon bo'ldi,
Bag'rimiz to'la qon bo'ldi,
Yeganimiz chigit non bo'ldi,
O'lar bo'ldikbu xonlarning dardidan.**

**Xonlar kursin, xonligini bildirar,
Nayzasini yelkalarga ildirar
Norasta qizlarni nikoh qildirar,
O'lar bo'ldik bu xonlarning dardidan.**

Haqqoniy, hayotiy, sodda qo'shiq xalq orasiga oqib kiradi. Ularning qalbida o'chmas iz qoldiradi.

Xalq qo'shiqlarida, ayniqsa, ular ma'lum kuy bilan aytilganda ko'pincha naqorat qo'llaniladi. Naqorat tematik bir-biriga yaqin qo'shiqlarni uyushtiradigan musiqiy komponent vazifasini o'taydi, mustaqil to'rtliklarni birlashtiradi, bir necha bandli yaxlit asar holiga keltiradi. Naqoratlar rang-barangdir. Masalan, "Qadamingda gullar ochilsin", "Chamanda gul ochildi-yo chakkanga taq, chakkangga", "Gulyoraxon bo'yaringdan, gulyor" va boshqalar. Kuzatishlar bizga kitobiy murabba'larning shakllanishida g'azali musajja" deb atalgan she'r turining ta'siri bor ekanligidan dalolat beradi.

Bizning kuzatishlarimiz kitobiy murabba'-musammatlarning genesologiyasida xalq she'riyatidagi to'rtlikning biz yuqorida ko'rib o'tgan turli shakllaridan tashqari yozma adabiyotda tarkib topgan ayrim shakli hamda badiiy usullarning ham ta'siri bo'lgan, albatta. Musajja' san'atini qo'llash qadimiy an'anaga egadir. Poetikaga oid asarlar bitgan olimlarimizning yozishicha, bu san'at "tasmit" deb ham yuritilgan. Ataullo Husayniy musajja' san'ati Rashiddin Vatvot asarida uchrashini ma'lum qilib, bunda shoir bir baytni bir-biriga teng to'rt qismga bo'lib, har uch qismning oxirini saj' bilan tugallashi, so'nggi to'rtinchi qismda asosiy qofiyani keltirilishi, bu esa musajja' san'ati deb yuritilishini uqtirib o'tadi.

"Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati"da chorbahra ichki qofiya deb izohlanadi. Qayd qilish lozimki, ichki qofiyalarning turi ko'p. Uning chorbahralar singari to'rt qismga bo'linishi shart emas. Ichki qofiyalar ba'zan to'rt, uch, ba'zan ikki qismga ham bo'linib, asosiy qofiya bilan qofiyadosh bo'lib kela oladi. Uning yozma poeziyada shakllanishi va rivojlanishida saj' usulining roli katta bo'ldi.

Musajja' san'ati bilan ziynatlangan baytlar, bandlar ko'p she'rlarda uchrasa ham, lekin butun bir g'azal yoki musammatda bu san'atni to'liq ishlatish, she'rning qariyb hamma bayti yoki bandida musajja'ga murojaat etish o'zbek adabiyotida Sayfi Saoryi, Lutfiy, Navoiy, Bobur, mashrab, Munis, Roqim, Nodira, Uvaysiy, Maxmur, Shavqiy, Ogahiy, muqimiy, Furqat, Zavqiy kabi shoirlarimiz ijodida uchraydi. Forsiy adabiyot tadqiqotchilari fikricha, bu badiiy usulning ixtirochisi hindistonlik mashhur shoir Amir Xusrav Dehlaviydir.

Boburning:

Qora zulfing firoqida parishon ro'zg'orim bor,

Yuzungning ishtiyoqida re sabru, ne qarorim bor.

Labing bag'rimni qon qildi, ko'zumdin qon ravon qildi,

Nega holim yomon qildi, men andin bir so'rorim bor...

misralarni bilan boshlanuvchi g'azali, Mashrabning "Ko'rung", "Keldi", "Kishim bormu", Shavqiyning "Aylab", Zavqiyning "Aylab keling", "Ofarin", Muqimiyning "Arzimni aytay", Furqatning "Fasli navbahor o'ldi" kabi g'azallarida matladan

keyingi baytlarining barchasida ichki qofiya bor. Ularning har biri ikki pallaga ajratilsa murabba'ga xos bandlr hosil bo'ladi.

Xullas, murabba'lar o'z asosini xalq og'zaki ijodidagi to'rtliklardan olgan. Yozma adabiyot vakillari uning shakl xususiyatlarini kitobiy uslubga moslagan holda o'zlashtirganlar. Demak, to'rtliklar o'zbek adabiyoti uchun yangi bir forma bo'lmay, uning ildizlari qadimiyat obidalariga, xalq og'zkai ijodi yodgorliklariga borib ulanadi. U ayniqsa, o'zbek folklorida-termalar, dostonlar, laparlar, o'lanlar va qo'shiqlarda har vaqt hokim forma bo'lib kelgan. Xalq dahosi yaratgan she'riy va nasriy badialar, qo'shiqlar, epik va lirik namunalar xilma-xil janr va formalar yuzaga kelishiga ta'sir ko'rsatgan. Ana shunday poetik shakllardan biri murabba' ekanligi yuqoridagi ilmiy izlanishlar hukmidan ayon bo'lib turibdi.

MAHTUMQULI IJODIDA NAVOIY AN'ANALARI

Alisher Navoiyning o'zbek va turkiy xalqlar she'riyatidagi xizmati beqiyosdir. Navoiy ijodi tuganmas bir xazina. Uni o'rganish yillar osha davom etaveradi. Uning bebaho xazinasini qardosh xalqlar adabiyoti vakillari ijodiga ham ta'sir etgan va ta'sir etmoqda. Navoiydan ilhomlanib, uning an'alarini davom ettirish turkman adabiyotining asoschisi Maxtumoruli ijodida asosiy o'rinni egallaydi. Maxtumoruli turkman adabiyotida birinchilardan bo'lib Navoiy g'azallari uslubi va radifida ko'plab she'rlar yaratdi. Shu ma'noda turkman olimi S.Qoriyevning A.Navoiyning turkman adabiyotida tutgan o'rni haqida aytgan quyidagi-so'zini keltirishni ulug' shoir ijodiga berilgan haqqoniy baho deb o'ylaymiz: «Navoiy o'zbek va turkman shoirlarining ulug' muallimi, buyuk ustozidir, u ikki qardosh xalq shoirlarini bir-birlariga yaqinlashtirgan, bir yerga jamlagan, ularni bir-birlari bilan aloqasini mustahkamlagan ustod shoirdir».

Maxtumoruli Navoiy g'azallarining g'oyaviy mazmuni va uslubidan ta'sirlangan holda ko'plab original nazira murabba'lar yaratgan. Ma'lumki, nazira bog'lashda shoir nazira bitish uchun tanlab olgan muxammasining temasi, vazni, qofiya va radiflari, xullas mazmun va shakl izidan borib, obyekt qilib olingan muxammasga o'xshash. undagi g'oyaviy mazmun va badiiy xususiyatlarni o'ziga xos tarzda kengaytiruvchi, qayta talqin qiluvchi asar yaratadi. O'z asariga tarixiy sharoit ruhini, fikriy yangiliklarni kiritadi. Natijada, o'zga shoir musammatining shu mavzu, shu shakldagi yangi varianti yuzaga keladi. Nazira muxammas yoki musaddas bog'lovchi shoir o'z g'oyalarini, muddaolarini ifodalashda g'oyaviy-

estetik jihatdan shunga ehtiyoj sezadi, shu priyomdan foydalanishga imkon beradi. Nazira murabba'lar ham xuddi shunday.

Nazira murabba'lar Maxtumquli, Andalib. Ogahiy, Komil Xorazmiy, Avaz, Muqimiy, Hamza, Berdaq, Durdi Qilich va boshqa shoirlar ijodida mavjud. Maxtumquli Navoiyning bir qator g'azallari ta'sirida, ularning mazmun-uslubini saqlagani holda. original to'rtliklar, murabba'lar yozdi. Masalan, Navoiyning «Tut», «Bo'lmasa», «Yaxshiroq» radifli g'azallariga o'zining «Tut», «Bo'lmasa», «Yaxshidir» radifli murabba'larini nazira qilgan. «Tut» she'rida har ikkala shoir ham dunyoning murakkabligi, turmushning og'irligi, rahmsiz ajalu umrning qisqaligi kabi ijtimoiy masalalar haqida fikr yuritadi. Navoiyda-

***Bnr ovuch suv topmayin o'lsang kerak chun tashnalab,
Baxrila bar fathida o'zni Skandar bo'ldi tut.***

***Afsaringni shami tufroqqa urar chun davri charx,
Subh zarrin tojni boshingga afsar bo'ldi tut.***

***Ne Faridundin asar chun qoldi, ne Jamshiddin,
Hashmating Jamshidu Afridunga hambar bo'ldn tut 46).***

Navoiyda bo'lganidek Maxtumqulida ham tarixiy shaxslarga munosabat bildirilib, ularning sarguzashtlari to'g'risida misollar keltiriladi. Maxtumquli o'z fikrlarini dalillash. tasdiqlash uchun Iskandar Zulqarnayn, Sulaymon, Qorunning nomlarini eslatib, ular haqidagi afsonalarga murojaat qiladi:

***Suva, yele xokmi gechen Suleyman,
Bak: olardan ne nam galdi, ne nıshan,
Suv tapmayıı, jayın bolsa cholustan,
Derya ichre men Isgender boldum tut.***

***Yoldashbolsan dile dushmez bile,
Ferish topmayan, bile yatsan mar bile,***

***Yigrim altı kerret yuz mun er bile,
Karun xazinasın eli aldum tut.***

Navoiyning «Boʻlmasa» radifli gʻazali ishqiy mavzuda yozilganidir. Oshiq yor kuyida, hijron azobida gʻam chekmoqda. U ishq kuyiga shunchalik muhtalo boʻlganki. uning bu holatini koʻrgan odam telba deb oʻylashi mumkin. Shoir insoniy, real- sevgini ulugʻlaydi va shunday xulosa chiqaradi:

***Ey Navoiy, tonmagar der ul pari majnun seni,
Oshiq oʻlgaymu pariga, ulki majnun boʻlmasa.***

Maxtumquli ushbu gʻazalga nazira tarzida «boʻlmasa» radifi bilan bir qancha gʻazal va murabbaʼlar bitdi. Barmoqda yozilgan bu sheʼrlar oʻn bir. boʻgʻindan iborat boʻlib, qofiyalanishi aaba, bbba, vvva tartibiga ega. Birinchi sheʼr toʻrt banddan tashkil topgan. Quyida shu sheʼrdan misol keltiramiz:

***Qushlar ucha bilmas quyruq, qanotsiz,
Oshiq yorga yetmas dodu faryodsiz,
Bir bedov xonazot boʻlar siyoqsiz—
Quyruqʻi, kokili, yoli boʻlmasa.***

***Maxtumquli, bilgin shunday zamondir,
Hozir xaypi boʻlsa, soʻngra ziyondir,
Er yigitning koʻngli toʻl darmondir,
Qora, koʻz, nozik bel yori boʻlmasa.***

Maxtumquli bu sheʼrida xalq ahvoli nihoyatda ogʻirligini, xatto sevishtganlar bir-birlariga yeta olmasligidan zorlanadi. Ikkinchi sheʼrida ham yuqoridagi fikrini yanada davom ettirgan. Odamning qadrini mehnat bilan emas, balki boylik bilan oʻlchaydiganlarni qoralaydi.

Maxtumquli o'z ijodida xuddi Navoiydek xalq orzu-intilishlarini tasvirlashga alohida e'tior berdi. Shoir o'z sherlarida xalq hayotini real tasvirlashga, turkmanlarniig milliy urf - odatlarini aks ettirishga alohida e'tibor beradi. Ma'lumki, turkmanlarda qadimdan avlodlardan avlodlarga meros bo'lib kelgan ajoyib an'ana bor. Ya'ni har bir yigitman degan kishining ot va yarog'i bo'lishi kerak. Shundagina u haqiqiy turkman sanaladi. Quyidagi murabba'da shoir shunga ishora qiladi:

Har kim go'zalman der, e'tibor bo'lmas,

Sunbul sochi, qilcha beli bo'lmasa,

Yuraklari ot boshidek botirlar.

Xotinchamas ot yarog'n bo'lmasa

Maxtumquli va Navoiy poeziyasining janrini kiyoslaganda ancha farqli tomonlari ham bor. Uning ijodining asosiy qismi barmoq vaznida yaratilgan. She'rlari 7, 11 bo'g'inli. Demak, Maxtumquli she'riyatida Navoiy poeziyasiga xos janr rang-barangligini (musaddas, ruboiy, qit'a. tuyuq va boshqalari) ko'rmaymiz. Maxtumquli she'rlari sodda va ravon tilda yozilgan, xalq qo'shiqlariga yaqin, jozibadordir. Lekin shunday bo'lsada, yuqorida keltirilgan she'rlarning qiyosiy tahlilidan ham ko'rinadiki, har ikki shoir ijodida bir xil niyat va maqsad. ya'ni mehnatkash xalqqa insoniy munosabat, aniqrog'i xalqchillik jihatidan mushtaraklik xususiyati borki, bu hamisha badiiy ijodning o'zak muammolaridan biri hisoblanadi.

MASHRABNING QALB NIDOLARI

Ajoyib g'azallar, muxammaslar va mustazodlar qatori Mashrab yaratgan murabba'larni ham shu janrniig shakllangan yetuk namunalari deyish mumkin. Shoirniig murabba'lari kishining eng nozik hissiyotlarini qitqlovchi sho'x, lirik taronalar sifatida ham ravon, ham yengil o'qiladi. Ular aruzning o'ynoqi vaznlarida yozilganki, kitobxon yodida uzoq vaqt saqlanib qoladi. Uning quyidagi murabba'si mazmun e'tibori bilan ham she'riy san'at namunasi bo'la oladi.

*Bulbuldayinkim faryod etarman,
Ishq daftarini bunyod etarman,
Ko'ngullarimni men shod etarman,
Yorga yetar kun bormu yoronlar?*

*G'am bahri qildi mavjini bunyod,
Ishqingda qnldim yuz ohu faryod,
O'tdi nigorim chun sarvi ozod,
Yorga yetar kun bormu yoronlar?*

*Sham'i firoqning ko'ksunda yondi,
Ko'z yoshim oqib bag'rimga tomdi,
G'aflatda qolgan Mashrab uyondi,*

Yorga yetap kun bormu, yoronlar?

Hajr ahla keldi tutti yokamdin;

Bag'rimni tilg'il paykoni g'am din,

Ming dodu faryod ushbu alamdin,

Yorga yetar kun bormu, yoronlr?

Bu murabba'da lirik qahramon kuyunch va dard bilan “Yorga yetar kun bormu, yoronlar?” deya nido qiladi. U shunday kunni istaydi, bu umuman baxtli va ozod, erkin va farovon hayotning orzusi sifatida jaranglaydi, har bandida qaytariluvchi bu misra go‘yo o‘z mazmunini kengaytiradi, ijtimoiy mazmun kasb etadi.

Mashrabning quyidagi ikkinchi murabba'si ham visol onlaridan behad shodlangan, orzusi ushalgan insonning «qalb nido»laridir. Bunda o‘zini ishq devonasiga o‘xshatadi. Uni devona qilgan narsa, yorining shirin so‘zi, o‘ziga rom qilab olgan shahlo ko‘zi, nomini taratgan oydek yuzidir. Oshiq yorinig yuzini bir marta ko‘radi. Mana shu ko‘rish unga huzur bag‘ishlaydi. Shuning uchun ham u yoriga qayerda bo‘lsa ham omonlik tilaydi.

Boqsang meninigdek devonalarga,

Aqlu hushidin begonalarga,

Isyon cho'lida avvoralarga,

Ko'rdim yuzingni alhamdulilloh.

Mastona qilgan shahlo ko'zingdur,

Devona qilgan shirin so'zingdur,

Afsona qilgan oydek yuzungdir,

Ko'rdim yuzingni, alhamdulilloh.

“Ey bod, yetkur yora salomim” murabba'sida hijron azobida qiynalgan oshiq yorning uzoqda ekanligidan xasrat chekadi va bodi sabodan yoriga salom

yetkazishini iltijo qiladi. Tabiatni jonlantirish, u orqali o'z dardlarini yorga yetkazish, nido, hitob vositasida shoir samimiy tuyg'ularini ifodalaydi:

*Ko'rmay yuzini devona bo'ldum,
Xalqi jahondin begona bo'ldum,
Yuz dardu g'amga hamxona bo'ldum,
Ey bod, yetkur yora salomim...*

*Yordan judo men o'lguncha bo'ldum,
Qonlarni yutdum, hasratga to'ldum,
Dardu g'amningdin, vallohqi, o'ldum
Ey, bod, yetkur yora salomim.*

*Homa bitarman ul qora qosha,
Uzog'ligidin ko'z to'ldi yosha,
Har dam urarmai boshimni tosha,
Ey bod, yetkur yora salomim.*

*Ko'ksimni dardin tosha bitarman.
Hasratingda boshni olib kstarman,
Seni qo'lingdin, valloh, o'larman,
Ey, bod, yetkur yora salomim.*

*Ishqingda Mashrab afg'on etadur,
Bag'rini har yon biryon etadur
Ko'zini har dam giryon etadur.
Ey bod, yetkur yora salomim.*

Bu she'rda shoirniig ichki kechinmalari bandma-band rivojlanib, jilolanib borishi orqali poetik mazmunda yorqinlik, yaxlitlik yuzaga kelgan.

Ko‘rinadiki, Mashrab murabba’lari ham uniig boshqa lirik asarlaridek inson qalbining orzu umidlari xalqining tilmochi, ko‘zgusidir. Shoir shu yurak dardlariga mos o‘ynoqi vaznlarni ishlatadi, xalqimizning bitmas-tuganmas so‘z xazinasidan ustalik bilan foydalanadi. Uning murabba’lari ham yuksak san’at asarlari sifatida ma’naviy va lafziy san’atlarning xilma-xil ko‘rinishlari bilan ziynatlangan. Shuning uchun ham bu murabba’larni o‘qigan har bir kitobxon uni bemalol qo‘shiq, qilib aytgisi keladi. Mashrab murabba’larining qo‘shiqqa mos qilib, o‘tl xalqchil tilda, o‘ynoqi, ommabop vazn va tasviriy usullarda yaratilganligi ularning o‘ziga xos xususiyatini belgilaydi. Zero, bu yerda Mashrabining xalq og‘zaki ijodi va musiqiy san’atga bo‘lgan muhabbati hamda ulardan davrning zo‘r san’atkori sifatida bahramand bo‘laolganligini eslatib o‘tish lozimdir.

Shuning uchun ham Mashrabning murabba’ formasidagi novatorligi, xalqchil an’analari bilan o‘zidan keyingi qalamkashlarga ta’sir ko‘rsata oldi.

II BOB

XX ASR VA HOZIRGI SHE'RIYATDA MURABBA' AN'ANALARI, YANGILANISH HOLATLARI

1. XX asr she'riyatida murabba'. (Hamza, Habibiy, Charxiy, Sobir Abdulla, Uyg'un, Tolib Yo'ldosh, Vosiyl Sa'dulla, Fozil Zoxid, Po'lat Mo'min, Akmal Po'lat, Yodgor baxshi Isxoqov, Umarxon Po'lkan).

Ma'lumki, turkiy xalqlar she'riyatida, jumladan, o'zbek klassik adabiyotida yaratilgan murabba'lar asosan besh, yetti banddan tashkil topgan. H.H.Niyoziy klassik murabba' formasining imkoniyatlaridan yanada kengroq foydalangan holda birinchilardan bo'lib o'z ijodida o'n-o'n to'rt va undan ortiq bandli murabba' namunalarini ham yaratdi. Bu esa o'zbek shoirlari ijodida bugungi kunda ham asosiy o'rinni egallagan ko'p bandli murabba' she'rlarning shakllanishi va rivojlanishida katta rol o'ynaydi.

Dastlab Hamza ijodida yaratilgan va keyinchalik o'zbek she'riyatining asosiy qismini tashkil etgan bunday tipdagi she'rlarni filologiya fanlari doktori, professor N.Shukurov murabba'-she'rlar deb atashni lozim ko'radi. Biz ham ushbu fikrga qo'shilgan holda an'anaviy klassik murabba' formasi sho'rolar davrlarda ham, bugungi she'riyatda ham so'z san'atkorlari tamonidan ijod etilayotganligini alohida ta'kidlab o'tmoqchimiz. Masalan, Habibiy, Charxiy, Sobir Abdulla kabi ijod ahllarining ishqiy mavzudagi hamda ozod va farovon o'lkamizni madh etuvchi, klassik murabba' talablariga javob beruvchi ko'plab, she'rlarini ko'rsatishimiz mumkin. Xalq qo'shiqlari ruhida yozilgan bunday murabba'lar Uyg'un, Tolib

Yo‘ldosh, Fozil Zohid, Po‘lat, Mo‘min, Akmal Po‘lat, Yodgor baxshi Is‘hokov, M.Yusuf, Umarqul Po‘lkan, A.Oripov, O.Matjon kabi ijodkorlarimiz tomonidan bormoqda, sakkiz, o‘n bir bo‘g‘inli, qofiyalanishi a-a-b-a, b-a-b-a, v-v-v-v va hakoza tartibidagi she‘r namunalari ko‘plab yaratilmoqda. Ayniqsa, “Mushtum” jurnali va “Mushtum” kutubxonasi seriyasida chiqarilayotgan kitoblarda bunday she‘rlar asosiy o‘rinni egallaydi. Shu bilan birgalikda O‘zbekiston Fanlar akademiyasi til va adabiyot instituti tomonidan nashr etilgan “Sovet davri xalq qo‘shiqlari” kitobida jamlangan qo‘shiqlarning asosiy qismi an‘anaviy klassik murabba‘ formasida ijod qilingan. Bulardan ko‘rinadiki, o‘zbek poeziyasida yaratilgan bu tipdagi she‘rlarning barchasini murabba‘ she‘rlar atamasi bilan nomlash unchalik to‘g‘ri bo‘lmasa kerak.

Chunki yuqorida ko‘rganimizdek, bugungi she‘riyatda ham klassik murabba‘ shaklii yashab kelayotir, ijod ahllari uchun eng ko‘p murojaat qiladigan poetik shakllardan biri bo‘lib qolmoqda. Ular qofiyalanishga ega bo‘lgan, bugungi kunda ham keng qo‘llanilayotgan-to‘qqiz bandlardan tashkil topmoqda. 1)

Bizningcha bularni quyidagicha nomlash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

1. Klassik adabiyotda birinchi bandlarning qofiyalanishi a-a-a-a; b-b-b-a; a-a-b-a; a-a-b-a tarzida boshlanuvchi, asosan yetti, to‘qqiz banddan iborat bo‘ladigan she‘rlarni – murabba‘lar deb atash.

2. Hamza ijodida ilk bor qo‘llangan a-b-a-b, a-a-b-a tarzida qofiyalanishga ega bo‘lgan, bugungi kunda ham keng qo‘llanilayotgan ikki banddan to o‘ttiz banddgacha davom etadigan she‘rlarni murabba‘-she‘rlar deb atash.

O‘zbek poeziyasida murabba‘ she‘rlar yaratish ikki xil yo‘l bilan rivojlanmoqda. Birinchisi, o‘zbek shoirlari ijodida klassik murabba‘ she‘rning shakliy-poetik xususiyatlari to‘la saqlangan, aruzda yozilgan namunalarda mazmunan yangilangan murabba‘ she‘rlar.

Ikkinchisi, asosan, barmoq vaznida yoziladigan to‘rtlik bandlardan iborat bo‘lib, bunday murabba‘lar o‘z strukturasi, ko‘p bandlarning mustaqil holatda ko‘zga tashlanishi, xilma-xil qofiyada kelishi, shoir taxallusining keltirilmasligi

kabi xususiyatlari bilan murabba' she'ning klassik adabiyotdagi namunalaridan birmuncha farq qiladi.

Shoir Habibiy klassik adabiyotimizning, aruzning qonun-qoidalarini, sir-asrorini yaxshi biladigan, ularni o'z ijodida katta mahorat bilan qo'llay olgan, hozirgi she'riyatimizda g'azalxonlikni taraqqiy ettirishda o'zining munosib

1). A.Xudoyberdiyev. O'zbek poeziyasida murabba'. Samarqand. 1991 yil. 71 bet.

G'.G'ulom nomidagi "Adabiyot va san'at" nashriyoti.

hissasini qo'shgan ustoz shoirlarimizdan biri. Uning chiroyli g'azal va murabba'lari bastakor va xonandalarimizning diqqatini o'ziga tortadi va ular kuyga darhol tusha qoladi. Uning murabba'lari asosan ishqiy mavzuda, o'ynoqi vaznda yozilgan, o'qimishli, yengil va ravondir.

Uning "Mujgonlaring" murabba'si buning yaqqol misolidir.

O'ynab-o'ynab ko'nglim oldi mujgonlaring, -b

Shirin-shirin so'zlaganda kulgonlaring, -b

Sho'xliklaring, g'amzalaring, javlonlaring, -b

Gulchehralar shaydolaring, hayronlaring.... -a

Men, Habibiy tez-tez borib ko'rgim kelur, -v

Asta-asta sen tomonga yurgim kelur, -v

O'ynab-o'ynab zavqim to'lib, kulgim kelur, -v

Bunday yozay yaxshi-yaxshi dostonlaring. -a

Bu she'rlarda klassik poeziyadagi an'ana yorning go'zalligini ta'rif-tavsif qilish va undan zavqlanish asosiy yo'nalish qilib olingan.

Shoir quyidagi murabba'da ozod o'lkaning hur farzandi ekanligidan jo'shib kuylaydi:

Men yayragan bog'im, gulzorim go'zal, -a

Gulzorimga loyiq dildorim go'zal. -a

Ko'nglimda asragan asrorim go'zal, -a

Tilla yorim degan takrorim go'zal. -a

Sevgan yorim ilmu hunarda mumtoz,	-b
Hur o'lkaga bergay san'atli pardo.	-b
Har qancha ko'p madh aylasam muncha oz,	-b
Mehribonim, do'stim hamkorim go'zal.	-a

Shoir Charxiyning ishqiy temada, partiya haqida, to'g'rilik, rost go'ylik, odob-axloq mavzuida yaratgan murabba'lari o'zining muhim tarbiyaviy qimmatga ega ekanligi bilan ajralib turadi.

Quyidagi she'rda partiyaning dono rahbarligi tufayli ozodlikka erishgan, halol mehnati bilan shon-sharaflar quchayotgan xalq ulug'lanadi:

Minnatdorman, e partiyam, ustozim,
Vafodirim, e partiyam, ustozim.
Sen yaratgan ozod, obod zamonda,
Baxtiyorman, e partiyam, ustozim.

Xalos etding qullikdan bu boshimni,
Achchig' edi, shirin qilding oshimni,
Ulug' ishga hissam qo'shib mehnatda
Fidokorman, e partiyam, ustozim.

Charxiy o'z murabba'larida yosh avlodni yaxshi axloqqa, pokiza xulqqa undaydi.

O'zbek poeziyasining an'anaviy janrlar bilan boyishiga o'zining munosib ulushini qo'shgan shoirlarimizdan yana biri Vosit Sa'dulla hisoblanadi. Vosit Sa'dulla klassik she'riyatimiz an'alarini muvaffaqiyatli davom ettirgan ijodkorlardandir. Xususan, shoir yaratgan g'azallar, mustazodlar, musallasotlar, murabba'lar, muxammaslar, musaddas, to'rtliklar va fardlar fikrimizning isboti bo'la oladi.

Shoir klassik poeziyamizning qaysi bir janrida qalam tebratmasin, o'sha janrning qonun-qoidalariga to'la rioya qilgan holda paxtakor diyorimiz, mehnatkash xalqimiz, zamondoshlarimiz madhini kuylaydi. Vosit Sa'dulla demokrat shoir

Muqmiy, o‘zbek shoirlaridan Habibiy, Sobir Abdulla, Charxiy kabilar ijodiy merosidan bahramand bo‘lgan holda ular izidan bordi. Ayniqsa, shoirning murabba’ she’rlar yaratishdagi mahorati tahsinga sazovordir.

Vosit Sa’dulla ijodida o‘ndan ortiq murabba’ namunalari bor. Shoir murabba’larining asosiy qismi muhabbat mavzusiga bag’ishlangan. Bularga uning “Ra’nocha qiz”, “Armon emasmu”, “Baxt uyidan”, “Dilrabolar”, “Davroni bor” va boshqa she’rlarini ko’rsatishimiz mumkin.

Bizga yoshlik aziz mehmon emasmu?	-a
Dilda sho‘xlik zavqi chandon emasmu?	-a
Topilmas bu go‘zal mavsum yoronlar,	-b
Bebaho soz, davru davron emasmu?	-a
Ko‘ngil berdim senga bahor yoshimda,	-v
Sevgi tashvishlari ortib boshimda.	-v
Jim turasan, nega kelib qoshimda,	-v
Bergan va’dang menga yolg’on emasmu?.	-a

O‘zbek xalq qo‘shiqlari ruhida, sho‘x va o‘ynoqi vaznda yozilgan bu she’rda shoir baxtiyor yoshlikni, sevgining qudratini ulug’laydi. “Davroni bor” murabba’sida ishq mavzusi asosida yoshlarni baxtiyor hayotimizning qadriga yetishga, mehnatsevar bo‘lishga chaqirdi.

Gar ko‘ngil qo‘ysang vafodoringga qo‘y,	-b
Jon bilan sevgan seni yoringga qo‘y.	-b
Kim hayot, mehnatda hamkoringga qo‘y,	-b
Elda o‘z o‘rni, o‘z javloni bor.	-a
Yor esang yorlik qilish ahdida bo‘l,	-v
Bo‘lsa aqling ishqiy yo‘qdan silta qo‘l.	-v
Mehnat ochgay muddaoga yaxshi yo‘l,	-v
Kim har ishning o‘z hadis mezoni bor.	-a

Demak, o‘zbek shoirlari ijodidagi klassik murabba’ she’rning formal-poetik xususiyatlari to‘la saqlangan, aruzda yozilgan namunalarida ham mazmunan yangilanish yuzaga chiqqan. Murabba’ she’rning ham klassik, ham zamonaviy xususiyatlarini o‘z ichiga oluvchi dastlabki yetuk namunalarini Hamza Hakimzoda Niyoziy yaratgan.

O‘zbek shoirlari xalq og‘zaki ijodida va Muqimiy lirikasidagi murabba’ formasini qayta ishlab qabul qildilar. Biz Muqimiy murabba’larida deyarli hamma vaqt har bir bandning dastlabki uch misrasi o‘zaro, to‘rtinchi misrasi esa boshqa bandlarning to‘rtinchi misrasiga qofiyalanib kelishini eslatib keldik. Bunday qofiyalanish tizimi murabba’ga qandaydir muntazamlilik, g‘azal va muxammasdagidek ohangdorlik baxsh etadi. O‘zbek shoirlari esa murabba’ning boshqacha qofiyalash tizimini asosiy shakl sifatida qabul qildilar. Ularning ijodida ikkinchi misrasi bilan to‘rtinchi misrasi qofiyalanadigan, birinchi misrasi bilan uchinchi misrasi qofiyasiz, erkin holda keladigan murabba’lar asosiy o‘rinni egallaydi. Ba’zan esa birinchi misra bilan uchinchi, ikkinchi misra bilan to‘rtinchi misrani qofiyalash asosiy shakl qilib olindi. Bunday erkinroq qofiyalanish tizimi ritm va intonatsiyani mazmunga mos ravishda tez-tez o‘zgartirib turish uchun muayyan qulayliklar yaratib berdi. Biz o‘zbek shoirlarining to‘rt misra- to‘rt misra qilib bandlangan she’rlarini birgina murabba’ so‘zi bilan emas, murabba’-she’r deb atashni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Bunday atash bilan biz hozirgi poeziyamizdagi to‘rtlik she’rlarni klassik poeziyadagi, jumladan, Muqimiy ijodidagi murabba’lardan farqlashni nazarda tutamiz. Ikkinchidan, murabba’ so‘zi yoniga she’r so‘zini qo‘shish bilan hozirgi zamon poeziyasidagi to‘rtliklarning yangi she’r uslubiga mosligini ta’kidlashni nazarda tutamiz, - deydi adabiyotshunos A.Xudoyberdiyev..

Hozirgi o‘zbek poeziyasidagi a-b-v-b, g-g-d-b, v-v-g-a, a-a-a-a, b-b-b-a shaklida qofiyalangan murabba’ she’rlari bilan ruboiy qofiyalari hamda “Devoni lug‘otit turk” da keltirilgan a-b-v-b, a-a-a-a, a-a-b-a, a-b-a-b shaklida qofiyalangan to‘rtliklar o‘rtasida muayyan bog‘lanish va qadimgi to‘rtliklarning ruboiy va murabba’ orqali hozirgi davrda transformasiyaga uchragan to‘rtlik bilan yozilgan,

katta salmoqqa ega bo'lgan she'riyat orasida tradisiya va novatorlik borligini sezmaslik mumkin emas, - deb yozadi aruzshunos olim Ummat To'ychiyev. 1).

Binobarin, bu she'r turli ijtimoiy – estetik omillar, talablar asosida ancha yangilandi. Ularning mundarijasi, obrazlari, ichki strukturasida o'zgarishlar yuz berdi, realistik detallar kuchaydi.

Murabba' she'r klassik poeziyada qat'iy norma va hajmga ega edi, ulardan chekinmaslikka harakat qilinardi. Poeziyada mualliflar uchun erkinlik ufqi kengaydi, romantik tasvir usuli o'rnini asosan, realistik tasvir usuli egallaydi, ijodiy metod yangilandi. Shunga muvofiq murabba' she'rlar tabiati, strukturasida, g'oyaviy-badiiy dunyosida novatorlik yuzaga chiqdi va chiqmoqda. Shuning uchun bunday to'rtliklarda shoir uchun fikr maydoni va qofiya imkoniyatlari ancha keng bo'ladi.

Bunga o'xshash forma Yevropa va rus adabiyotida ham she'riyatning yetakchi, asosiy formalaridan biri bo'lib kelgan. Masalan, Katren-to'rtlik. Bu termin chegaralangan ma'noda faqat tugal mazmun ifodalovchi mustaqil to'rtliklarga nisbatan qo'llaniladi.

Dastlab bu termin to'rtlik shaklidagi bir necha bandlardan tuzilgan she'riy asarlarning har bandiga nisbatan ham qo'llanilgan bo'lsa, hozir faqat mustaqil to'rtliklarga nisbatan ishlatiladi. Masalan, mustaqil to'rtliklardan iborat xalq qo'shiqlari. Katrenlar turlicha qofiyalanish shakliga ega: a-a-a-b, a-a-b-a, a-b-b-a, a-a-b-b va hokazo. A.S.Pushkin o'z ijodiga katrenni ko'p qo'llagan. Shundan so'ng rus poeziyasida bu shaklga murojaat etish kuchayib ketdi va yetakchi she'riy shaklga aylandi.

Demak, biz o'zbek poeziyasida yaratilgan va yaratilayotgan bunday to'rtlik she'rlarni murabba' she'rlar deb nomlasak to'g'ri bo'ladi. Bunday murabba' she'rlarning 2 banddan 25-30 bandgacha bo'lgan turi mavjud. She'rning hajmini tanlangan mavzu, poetik mazmun, shoirning uslubi belgilaydi.

1). U.To'ychiyev. O'zbek adabiyotida aruz. "Fan". Toshkenti. 1985 yil.

ABDULLA ORIPOV MURABBA'LARINING BADIY XUSUSIYATLARI

Bu masalaga kirishishdan oldin janr nima? degan so'roqqa aniq va asosli javob topishdir. Janrning nimaligini aniqlashdi, birinchi navbatda, badiiy asar tuzilishining o'ziga xos xususiyatlarini asoslash kerak.

Demak, har bir janr atamasining o'z qonun qoidalari bor. Masalan, ruboiy qonun qoidasi quyidagicha:

1. Ruboiy to'rt misralik mustaqil she'r.

2. Ruboiy a,a,b,a, yoki a-a-a-a shaklida qofiyalanadi. Masalan, Abdulla Oripov ruboiysidan namunani ko'rsak.

Koinot gultoji insondir azal.	-a
Undadir eng oliy tafakkur, amal	-a
Hatto u tubanlik ichra ham tanho	-b
Yo falak, ijoding buncha mukammal	-a.

Bu yerda a, a, b, a tarzda qofiyalangan.

3. Ruboiyda tajnis tashbeh ishlatish mumkin.

4. Ruboiyda falsafiy (donishmandlik) ruhi kuchli.

5. Kompozision qurilishi aniq va puxta mavzu doirasi keng (ruboiy kabi barcha janrlarning g'azal, tuyuq, muxammas, musaddas va boshqa janrlar) o'z qonun qoidasi bor.

Murabba' janrining qonun qoidalari quyidagicha:

1. “Adabiyotshunoslik terminlari lug’ati”da “Murabba’” deyilganda mumtoz poeziyadagi qofiyalanish tartibiga qarab tuzilgan va har bir bandi to‘rt misradan iborat bo‘lgan she’r shakli tushunilgan.

2. Murabba’da birinchi banddagi to‘rtala misra bir xilda -a-a-a-a- shaklida, keyingi bandlardagi 1-2-3 misralar esa birinchi banddagi to‘rtinchi bilan (b-b-b-a, g-g-g-a kabi shaklida) qofiyadosh bo‘ladi.

Boborahim Mashrabning yetti banddan iborat murabba’sidan namuna keltiramiz.

Bulbuldayinkim faryod etarman, -b

Ishq daftarini bunyod etarman, -b

Ko‘ngillarimni men shod etarman, -b

Yorga yetar kun bormu, yoronlar -a

Shami firoqing ko‘ksunda yondi, -g

Ko‘z yoshim oqib bag‘ringa tom-di, -g

G‘aflatda qolgan Mashrab uyg‘ondi -g

Yorga yetar kun bormu, yoronlar -a

Bu yerda ikkinchi xil qofiyalanish qo‘llangan. Ahmad Yassaviyning barcha she’rlari murabba’ janrida yozilgan.

3. Murabba’da g‘azalga nisbatan erkinlik keng. Mavzu tanlashda, aruz vaznining har xil vaznlarda yozilishi, mavzudagi g‘oya har bir bandda to‘ldirilib borilishi va boshqalar ya’ni murabba’da misralar, bandlarning takrorlanishi bilan mazmun ochiladi.

4. Murabba’ janri nafaqat o‘zbek she’riyatida, balki ozarbayjon, turkman, uyg‘ur, qozoq, qirg‘iz she’riyatida ham qadimdan rivojlanib kelgan.

Bu haqda adabiyotshunos A.Xudoyberdiyevning “O‘zbek poeziyasida murabba’” monografiyasida batafsil ma’lumot berilgan.

5. Murabba’lar sho‘x, o‘ynoqi vaznda, xalq qo‘shig‘i uslubida va Ahmad Yassaviy ijodida barmoq vaznda, Mashrab va Muqimiy ijodlarida ham barmoqda, ham aruzning mutaqorib, ramal bahrlarida yozilgan.

Fa'ulun,	fa'lun,	fa'ulun,	-	faulun	(mutaqorib)
--- v -	--- v -	--- v -		--- v -	
Foilatun,	Foilatun,	Foilatun,		foilun	- ramal
--- v -	--- v -	--- v -		--- v -	

Ma'lumki, Abdulla Oripov ijodida o'ttizga yaqin, Muhammad Yusuf ijodida esa oltmishga yaqin murabba'lari bor. Ularning barchasi barmoq vaznda yozilgan, 9, 11 bo'g'indan iborat. Turoqlanishi 4-5, 5x6, 4-7 va hakoza. Qofiyalanishi ikki xil tarzda: birinchisi a-a-a-a, b-b-b-a, v-v-v-a, g-g-g-a; ikkinchisi b-a-v-a, g-g-g-a, d-d-d-a, ye-ye-ye-a va hakoza tarzda. Besh banddan, to'qqiz, o'n to'rt bandgacha. Asosan besh, yetti banddan iborat murabba'lar ko'p uchraydi. Shoirilar ijodida vatanparvarlik, xalqparvarlik, mustaqillik, milliy urf-odatlarimiz, an'analarni qadrlash, ota-ona, farzand haqida, ulug' ajdodlarimiz, tariximizga e'tiqodli bo'lish, ona tabiat, go'zallik, bahor, yaratganga shukronalik, insof, imon kabi mavzularda o'z dunyo qarashlarini bayon etgan.

Zamonaviy o'zbek she'riyatining iste'dodli vakillaridan biri Abdulla Oripovdir. Shoir ijodiga sinchiklab nazar tashlagan kishi, birinchi navbatda uning ko'ngil kishisi ekanligi va ijodida ko'ngil manzaralari muhrlanganligini anglaydi. Uning asl she'rlarini qasida, dostonlarini ko'ngil mavjlari deyish mumkin.

Abdulla Oripovning samimiy she'riyati pokiza ko'ngilning holatini ifodalash ehtiyoji va natijasi o'laroq yuzaga keldi. Abdulla Oripov o'zbek she'riyatiga o'ychil g'am va g'amchil o'y olib kirdi. Shoir milliy she'riyatimizda hazrati Navoiy aytganlaridek "Ko'ngilni g'am yo'qligini asru g'am, Alam yo'qligini qattiq alam" deb biladigan shoir sifatida paydo bo'ldi.

Abdulla Oripov she'riyati pokiza tuyg'ular, ismsiz dardlarning ifodasi edi. Ulardan sokin ohang tarqaladi. Shoir she'rlarining eng yorqin belgilaridan biri samimiylikdir. Shoir otashin she'riyati bilan o'zbek adabiyotiga yangicha nafas yangicha ruh olib kirgan.

Abdulla Oripov lirikasi orqali o'zbek she'riyatiga ko'ngil dardlarini suratlari, ruhiy iztiroblar manzarasi, armonga aylangan orzular inson sezimlarida iz tasviri kirib keldi.¹⁾

Ohu

Makoning bo'libdi tog'lar orasi,	-b
Sensan go'zallikning asl, sarasi.	-b
Ma'yus yuragingda ishqning yarasi,	-b
Sen ham oshiqmisan yoki, ohujon.	-a

1. A.Oripov. T-a. I tom. Adabiyot va san'at nashriyoti. T.: 2000 yil. 432 bet.

2. A.Oripov. T-a. I tom. Adabiyot va san'at nashriyoti. II tom 2001 yil 490 bet.

Daralar qo'ynida neni istarsan,	-v
Nechun doim g'amgin, doim mustarsan.	-v
Latif shijoatning qayga qistarsan,	-v
Sen ham oshiqmisan yoki, ohujon.	-a
Yo'q sen axtarmassan tog'lardan makon,	-g
Va na go'zalliging uchun shuhrat-shon.	-g
Sayyod jabri senga bermaydi imkon,	-g
Sen ham oshiqmisan yoki, ohujon.	-a
Qo'y, jonim, ko'zlaring to'lmasin yoshga,	-d
Tongda oyog'ing qo'y baland bir toshga.	-d
Seni quyosh o'zi ko'targay boshga,	-d
Sen ham oshiqmisan yoki, ohujon.	-a

She'riyat shunday makonki, uning og'ushida titramaslikning iloji yo'q. She'riyat shunday ummonki, uning to'lqinlarida suzmaslikning iloji yo'q. She'riyat shunday osmonki, uning ko'ksida goh bulut bo'lib yig'lamaslikning, goh quyosh bo'lib kulmaslikning oy kabi ma'yus balqib, yulduzlar kabi porlamaslikning iloji yo'q.

Shoirlik-chi? Shoirlik shunday kuchki, baland-baland viqorga o'xshagan tog'larni bir zumda tuproqqa, siynasi qattiq toshlarni suvga, butun koinot-u yeryuzini kaftida namoyon etishi mumkin.

Zero, shoir aytganidek:

Temur tig'i yetmagan joyni,
Qalam bilan oldi Alisher.

Shoirlik shunday kuch ekan-ki, butun jahonni qalam zabt etishi mumkin. Shunday zabardast shoirlardan biri O'zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov she'rlari ham har bir o'zbek xonadoniga mayin kuyga aylanib, kirib borgan va har bir yurak to'ridan joy olgan.

Shoir "... birinchi she'rlar yoza boshlaganimda nima turtki bo'lganini aniq bilmayman. Har holda so'zlarni qofiyalashga ishqiboz bo'lib qolganim esimda. Balki zerikkanimdan, balki zavqim toshib, nimadir yozgim kelaveradi. Yozmaslikning ham iloji yo'q", - deb eslaydi.

Abdulla Oripovning "Ohu" she'rini o'qiganimizda ham ko'tarinkilik, ham ma'yuslik tuyg'ulari butun vujudimizni qamrab oladi.

Zero, tanamizga suv va havo nechog'lik zarur bo'lganidek, ma'naviyatga, ma'rifatga tashna qalbimiz uchun ham she'r shunchalik zarur.

Yuqoridagi "Ohu" she'rini qayta-qayta o'qiymiz va har o'qiganimizda yangidan-yangi tuyg'ular, hislar tug'iladi. She'r sarlavhasining o'zi kitobxonni o'ziga jal etadi.

"Ohu" – deganda ko'z o'ngimizda oshiq, mustorlik, ma'yuslik, sayyod, ko'zlardagi yosh, insonlardan qochish tuyg'ulari gavdalanadi.

She'rni ilk bor o'qiganimizda, Ohu timsoli ostida vatanparvarlik, vatanni suyish, ya'ni ohu tog'-u toshlarni jonidan ortiq ko'irishi, yam-yashil bog'-u o'tloqlarga alishmasligi kabi tuyg'ular seziladi. She'rni qayta o'qiganimizda "mehr" tuyg'usini sezamiz. Endi ohujon sayyodning jabridan mehr izlab o'zini tog'-u toshlar bag'riga uradi. Har bir bandeda takrorlanuvchi "Sen ham oshiqmisan, yoki ohujon" misrasining takrorlanishida ham chuqur falsafiy ma'no bor. Ya'ni Ohu nimaga yoki kimga oshiq? Lirik qahramon ohuga savol nazari bilan murojlat qiladi.

Demak, lirik qahramon asli oshiq, misradagi "ham" yuklamasi buni isbot etadi.

She'r to'rt banddan, har bir band to'rt misradan iborat. Qofiyadosh so'zlar orasi, sarasi, yarasi, istarsan, mustarsan, qistarsan, makon, shon, imkon; yoshga, toshga, boshqa. Takrorlanuvchi misra:

“Sen ham oshiqmisan yoki, ohujon.

O'xshatishlar:

Ma'yus yurak, latif shijoat, ishqning yarasi, sayyod jabri.

Qofiyalanishi: a-b-b-a, v-v-v-a, g-g-g-a ...

She'r barmoq vaznda yozilgan.

Makoning bo'libdi / tog'lar orasi

Sensan go'zallikning / asli, sarasi.

Ma'yus yuragingda / ishqning yarasi,

Sen ham oshiqmisan / yoki, ohujon.

An'anaviy o'n bir vaznda. She'rda tashbehlardan tashqari go'zal sifatlashlar qo'llanilgan.

Asar o'quvchilarga kuchli estetik ta'sir ko'rsatadi.

“XALQ” SHE'RI

Nomingni qora degan, paxtaginam

senmisan, -b

Lo'ppi deya yutganim – loxtayginam

senmisan, -b

Avatoda bosh urgan, taxtaginam

senmisan, -b

Faqatgina xalq yashar, faqat

qolur xalq. -a

O'zbekning peshonasin po'latdan

yormishdir, -v

Yumishini malomat, zahmatdan	yaratmishdir.	-v
Bir so‘z bilan aytganda, mehnatdan	yaraladir.	-v
Faqatgina xalq yashar, faqat	qolur xalq.	-a
Tinglasang tugamas afsonasi,	bor bu yel.	-g
Sarkardasi, shoiri, taronasi	bor bu el,	-g
Ming oqilg‘a arzulik, devonasi	bor bu el,	-g
Faqatgina xalq yashar, faqat	qolur xalq.	-a
Farishta emasturmiz, ushbu	gapini sir emas.	-d
Har uchragan sham, har tamoliq	nur emas.	-d
Lekin dasturxon haqqi, ko‘nglimiz	hyech kir emas.	-d
Faqatgina xalq yashar, faqat	qolur xalq.	-a
Jangohlarda jon bergan, bobolarni	unutmang.	
Mashoq terish non bergan,	mashoqlaring unutma.	
E’tiqod iymon bergan, duolarni		

Unutmang,
Faqatgina xalq yashar, faqat
qolur xalq.

Amalparast luttiboz bo‘lmagan
qachon axir.

Sor bir nima yemasa og‘zi
bo‘larmish taxir.

Bizning borgamiz shoxmiz, bizning
borgamiz faqir.

Faqatgina xalq yashar, faqat
qolur xalq.

O‘tganlarni yod etmoq, ketgandir
shariatdan.

Inson sharafai yuksak millati
tariqatdan.

O‘zbekka bo‘l fazilat yoqmishdir
tabaitdan.

Faqatgina xalq yashar, faqat
qolur xalq.

Olimmi yo paxtakor kim bo‘lmasin
odamdir.

Ya‘ni olloh bandasi har biri-bir
olamdir.

O‘zbekim o‘z volidang, o‘zbekim o‘z
otamdir.

Faqatgina xalq yashar, faqat
qolur xalq.

Ayon gapki adolat elning ko‘z
qoshi bo‘lur.

O‘zgani o‘n-oshi-yu, suksa so‘li
oshi bulur.

Yurt og‘irini tortalgan asli
yurt boshi bulur.

Faqatgina xalq yashar, faqat
qolur xalq.

Kattakon yo‘lga chiqding, yo‘ldoshing
bo‘lay xalqim.

Farzandingman, qo‘llaysan, qo‘ldoshing
bo‘lay xalqim.

Xasrating ko‘p dilingda dildoshing
bo‘lay xalqim.

Faqatgina xalq yashar, faqat
qolur xalq.

Bunday matn parchalarini tekshirganda asosiy e‘tibor faqat obrazli so‘zlarga qaratiladi. Ikkinchi – olam o‘zaro birikib, matnda ruhiy holat yoki manzara yaratadi, bunda asosiy vazifa-poetik bu uyg‘otish bevosita, so‘zlarga emas, manzaraning yorqinligi yoxud holatning kuchiga yuklanadi. To‘g‘ri she‘riy matnlardagi manzara holat so‘zlar ma‘nosida bunyodga keladi, lekin bunda so‘z yordamchi, qo‘shimcha vazifani bajaradi. Uchinchidan ko‘z bilan ko‘rib, qo‘l bilan ushlab, quloq bilan eshitib bo‘lmaydigan mavhum (abstrakt) tushunchalar va konkret predmetni emas, u haqdagi tushunchani anglatuvchi so‘zlarning o‘zaro munosabatga kirishishi natijasida poetik tuyg‘u yuzaga keladi.

Biz bugun Abdulla Oripovning “Xalq” she‘rini tahlil qilar ekanmiz, agar she‘r matniga diqqat qilinsa, unda xalqning yaxshi-yomoni, ne-ne qiyinchiliklarni

ko'rgan o'zbek xalqi haqida shoir o'z fikrlarini shu she'rga mohirlik bilan joylashtiradi.

Agar she'rning birinchi matniga ya'ni bandiga e'tiborimizni qaratsak, unda hamma narsa o'tadi, mansab ham, shavkat ham, lekin shirindan, shirin qoladi, balxdan esa talx degan satrlarni uchratishimiz mumkin. Shoir bu yerda nima demoqchi? Ya'ni bu yerda dunyo o'tkinchiligini, mansab ham, shavkat ham qolib ketadi, lekin yaxshi ishlar qilsang, u albatta, tarix zarvaraqlarida qoladi degan g'oyani ilgari surgan.

A.Oripovning "Xalq" she'ri o'n ikki banddan iborat bo'lib, har bir band bir-birini to'ldirib boradi. She'r barmoq vaznida, murabba' janrida yozilgan.

Agar shoirning har bir bandiga e'tiborimizni qaratsak, har bir bandning oxirida bir misra aynan takrorlanib kelganligini ko'rishimiz mumkin. Bu bilan shoir bu dunyoda faqatgina shoir yashaydi va faqat xalq qoladi degan g'oyani ilgari surib, juda to'g'ri fikrlarni aytadi. Agar shoirning ikkinchi bandiga e'tiborimizni qaratsak unda insonning boshidan ya'ni xalqning boshiga qanchadan – qancha kulfatlar tushadi, gohida yig'ladik, gohida xondon bo'ldik, gohida bolg'a bo'lsak, gohida sandon bo'ldik degan misralarini uchratishimiz mumkin.

Ikkinchi bandning uchunchi misrasida esa shoir xalqning boshidan o'tgan shuncha musibatlardan o'tib, oxiri tole bo'lib boqadi degan g'oyani ilgari suradi. Bi bilan shoir o'zbek xalqining mustaqillikka erishib, o'zbek xalqining gullab yashnayotgani haqida o'z fikrlarini shoir bu she'rida aytib o'tmoqchi.

Xullas, shoir bu she'rida o'zbek xalqiga o'z fikrlarini bildirib, o'zbek xalqining hych qachon ko'nglida kiri yo'qligini samimiy xalq ekanligini o'z she'ri oraqli aytib o'tgan.

Bu she'rda shoir bir-qancha san'atlardan foydalanganligini ko'rishimiz mumkin. Masalan, bu she'rda tazod, o'xshatish, mubolag'a kabi bir qancha san'atlarni uchratimiz mumkin.

Bu she'rning qofiyalanishiga e'tibor beradigan bo'lsak, bu she'rning birinchi bandi b-b-b-a tarzida qofiyalanib, qolgan bandlar esa g-g-g-a tarzida qofiyalanib boradi.

Umuman olganda A.Oripovning “Xalq” she’rini o‘qir ekanmiz, unda juda katta ma’no yotganining guvohi bo‘lasiz. Bu she’r juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Inson doimo tabiat go‘zalliklardan bahra olishga, uning hali inson yaoti anglab yetmagan sir-sinoatlarini anglab yetishga intiladi. Shoir qalbi esa tabiatdagi eng inja tuyg‘ularida ko‘ra oladi.

O‘zbekiston xalq yozuvchisi Abdulla Oripov ham o‘z she’rlarida tabiat tasvirini teran mushohadalari orqali ochib beradi.

Xususan, uning “Kakligim” she’rida ham insonning tabiatga, xususan qushlar olamiga bo‘lgan munosabati ko‘rsatib berilgan.

“Kakligim” she’ri to‘rt misradan iborat.

Birinchi bandning misralari.

Tog‘lar echisi deb xush ko‘rdim seni,	-b
Qush ichra eng ajib qush ko‘rdim seni.	-b
Inja diydoringni tush ko‘rdim seni.	-b
Manzili tog‘ bilan daryo kakligim.	-a

Shoir ushbu so‘zlari orqali tog‘ qushi hisoblanmish kaklikka uning tog‘ qushi ekanligini, qush bo‘lganda ham, o‘zga qushlardan ajralib turishi, yashovchi joyi tog‘ cho‘qqilari ekanligini ushbu misralarga jo qilganligini ko‘ramiz.

Olis Bobotog‘dan bir tong mahali,	-v
Kelding do‘stim bilan meni ko‘rgali.	-v
Ziyorat goh inson, goh qushning gali,	-v
Xush kelding dedim, oh, zebo kakligim.	-a

Sen olis Bobotog‘dan kelding, seni men xuddi sirdosh do‘stimdek bilaman, goho mening toqqa sening yoningga borganimdek, sen bugun oldimga kelganingda shodman.

Kaftimdan behadik donlar terarding,	-g
Tegramda toblanib, yayrab yurarding.	-g
Munchoq ko‘zlaringni tikib turarding,	-g

Cho‘msam hayollarga goho, kakligim.

-a

Sen qush bo‘lsangda, insonlardan hayiqmasding, doimo kaftimda don yerding, atrofimda yayrab yurarding, goh hayollar ummoniga g‘arq bo‘lsam, sen munchoq ko‘zlaringni menga tikib turarding.

Bilmadim ne bo‘ldi – ketding bedarak,

-d

Do‘rmon bog‘larini kezdim jonsarak.

-d

Qushdan do‘st topgandim ko‘p ko‘rdi halak,

-d

Endi qaylardasan, oshna kakligim.

-a

Men o‘zimga qushlarning orasidan do‘st topganimdan ko‘nglim shod edi., lekin nima bo‘ldi-yu sen bedarak ketding. Shoir ushbu misralar orqali shoir qalbi ushbu qush bilan doimo oshno ekanligini ta’kidlamogda.

Shoir ushbu she’ri orqali uning ko‘ngli doimo tabiat bilan uyg‘unligini bundayin holat butun insoniyatga xos fazilat ekanligini gavdalantirmogda.

Murabba’ barmoq vaznida yozilgan bo‘lib misralardagi bo‘g‘inlar soni o‘n bittadan iborat.

Turoqlanishi $6+5=11$ shaklida bo‘lib, a-a-a-b tarzida qofiyalangan. She’rning birinchi bandidagi ilk uch misrada “ko‘rdim seni” so‘zlari va har bandning oxirida “kakligim” so‘zi radif bo‘lib kelgan.

Tog‘-lar el-chi-si deb xush ko‘r-dim se-ni, 11

-b

Qush ich-ra eng a-jib qush ko‘r-dim se-ni. 11

-b

In-ja diy-do-ring-ni tush ko‘r-dim se-ni, 11

-b

Man-zi-li tog‘ bi-lan dar-yo kak-li-gim. 11

-a

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkin-ki, shoir ushbu she’ri orqali inson, uning qalbi doimo bir-biri bilan uzviy aloqada ekanligini yana bir yodga oladi.

Kaklik obrazi orqali shoir uni doimo o‘ziga yaqin tutganligi, xuddi yaqin kishidek tutishi, uni ozgina fursat ichida ko‘rmasa, sog‘inib qolishini ifoda etgan.

Ijodkor mana shu to‘rt band orqali qushni o‘ziga yaqin olgan va xuddi do‘stiga qilgan munosabatdek tabiiy chiqqan.

PAHLAVON MUHAMMAD QABRI QOSHIDA

Madorsiz qo‘limga qalam olganda, -b
Yo uzoq yo‘llarda ko‘rib-tolganda. -b
Bir nomard qoshida ojiz qolganda, -b
Pahlovon Muhammaddan so‘radim madad. -a

Yulduzlar misoli kulganda ruhim, -v
Bo‘ronli hislarga to‘lganda ruhim. -v
Ba‘zan she‘r ustida so‘lganda ruhim, -v
Pahlovon Muhammaddan so‘radim madad. -a

Kuyladim fazoga naqlim yetmadi, -g
O‘yladim dunyoga aqlim yetmadi. -g
Qay ishga qo‘l urdum, shaxdim yetmadi, -g
Pahlovon Muhammaddan so‘radim madad. -a

Men uchun xilxona bo‘lganda olam, -d
Gumbazlar ostidan chiqdi bir olam. -d
- Hayotim, bunchalar faryod aylama, -d
Men o‘zim madadga zorman – ku bolam. -a

Ushbu she'r Abdulla Oripov qalamiga mansub bo'lib, she'rning nomlanishi "Pahlavon Mahmud qabri qoshida" deb nomlanadi. She'rda ko'tarilgan masalan birga adabiyotda, mumtoz adabiyotdan, ma'lumki, har bir yozuvchi, shoir o'zidan oldin o'tgan ustozlardan, pirlaridan madad so'ragan holda yashaganligini ko'ramiz. Pahlavon Mahmud haqida biz Alisher Navoiyda ham uning asarlarida ko'rishimiz mumkin. Bunda ko'tarilgan masala shundan iboratki shoir she'rda o'z ichki kechinmalari qalbi tuyg'ularini ko'targanligini pahlavon Mahmudga madad, ko'mak so'raganligini ko'ramiz.

Maqsad shundan iboratki shoir Pahlavon Mahmudga murojaat qilishda ajdodlar ruhini yodga olish mumkinligini shu inson haqida kelajak avlod ongida ma'lum bir ma'lumot berishligini maqsad qilib olgani bizga ma'lum. She'rni o'qigan o'quvchi Pahlavon Mahmud kimligini, uni nima bilan mashg'ul bo'lganligi haqidagi o'y-fikrlarga to'lishi hamda bevosita shoir keltirgan shaxsga nisbatan qiziqish uyg'otish shoir tomondan maqsad qilib olingan.

Nima uchun? – deb savol qo'yadigan bo'lsak o'quvchi she'rni o'qigandan so'ng buyuk shaxs haqida ma'lumot to'plashga kirishishi, uning hayoti bilan qiziqishi aniq.

Maqsaddan qo'llangan narsa vazifani namoyon bo'lishiga turtki bo'ldi. Vazifa shunday bu ulug' shaxs haqida kelajak yoshlarga ma'lumot qoldirishdan iborat. Bizga ma'lumki, adabiyotda hamma davrlarda ham ajdodlar ruhini yodga olish, ulardan najot kutish hamma davrlarda ham o'z aksini topgan. Shunday ekan biz bu mavzuni yangi mavzular sirasiga kiritmaymiz. She'rlarning yozilishi ikki xil yo'l bilan yozilganligi bizga ma'lum bo'lib, adabiyot tarixida ko'proq aruz vaznida yozilganligini ko'rsak bugungi kunga kelib barmoq vazni yetakchilik qilayotganligini ko'ramiz. Shunday ekan yuqorida keltirilgan she'rimiz ham barmoq vaznida bo'lgan. She'rdagi misralarni turoqlarga ajratganimiz bu yerda bir misrada ikkita turoq mavjudligini ko'ramiz. She'rning turoqlarga ajralishi 5+5 shaklida bo'ladi.

She'rning qofiyalanishi. Bizga ma'lumki qofiya ikki xil ko'rinishga ega bo'lgan muqayyod qofiya, mutloq qofiya. Qofiya haqida fikr bildiradigan bo'lsak

bunda she'ring oxirgi so'zlarining o'zaro bir-biriga mos kelishidir. Birinchi baytni oladigan bo'lsak yerlagi

olganda

tolganda

qolganda

o'zaro qofiyalanib kelganligini ko'ramiz. Ikkinchi baytda ruhim so'zining uch misrada takrorini ko'ramiz. "Pahlavon Muhammad qabri qoshida" deb nomlanishi she'rda misralarning takrorlanganligi. Ushbu she'rda faqat bir misra "Pahlavon Muhammaddan so'radim madad" misrasi uch bayt davomida takrorlanganligini ko'ramiz. To'rtinchi misraga kelganda bu holat kuzatilmaydi. She'rda shoir o'z ichki kechinmalarini keltirganligini ko'rishimiz mumkin. Bunda shoir she'r davomida o'zi qanday to'siqqa uchragan bo'lsa, yoki biron ishga qo'l urganda Pahlavon Muhammaddan madad so'raganligi uch bayt davomida kuzatsak. To'rtinchi baytga kelib ko'tarilgan masala o'zgarib shoir tomonidan tanbeh ma'nosidagi misralar keltirilganligini shohidi bo'lamiz. She'rdagi har bir band to'rt misradan iborat ekanligini ko'ramiz. She'rda talmeh, o'xshatish kabi san'atlar qo'llangan. Talmeh san'ati ma'lum bir she'r mavzu ichida tarixiy shaxslarga murojaat qilishdir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bu she'rda Pahlavon Mahmud siymosi emas, balki uni hurmat va e'zozlagan shoir unga bo'lgan o'z munosabatini she'r orqali bildirgan. U har ishda undan madad so'rab ish tutishligining tarbiyaviy ahamiyati shundaki, bizda ustozlardan madad so'rab ish boshlash milliy an'analarimizdandir. She'ring tarbiyaviy jihati yoshlar ham xuddi shunday azizlarni, buyuk shaxslarni yodga olib yashashlarini ular ongida shakllantiradi.

MO'MIN MIRZO

Hazrat Navoiyning nazari tushgan,	-b
Yuragida balki she'r qoni jo'shgan,	-b
G'unchadek qalbida ohi uvishgan,	-b
Mo'min Mirzo, ukam, seni o'ldirdilar.	-a

Qo'lingga solishar tilladan zanjir, -v
 Shahzoda yigitga hurmat bu, axir! -v
 Bu nechuk qabohat, bu nechuk tahqir, -v
 Mo'min Mirzo, ukam, seni o'ldirdilar. -a

To'ringda o't yongur amirlar xudbin, -g
 Bilganlar na nomus, na vijdon, na din. -g
 Mayparast bobong ham bukidbi qadding, -g
 Mo'min Mirzo, ukam, seni o'ldirdilar. -a

Senga saltanatning qanday dahli bor, -d
 Sen-ku masum go'dak, pokiza dildor. -d
 Olim bo'larmiding, balki san'atkor, -d
 Mo'min Mirzo, ukam, seni o'ldirdilar. -a

Ukam yovuzlarning topganlari shu, -e
 O'z o'g'ling it bo'lib qopganlari shu. -e
 O'z qalbin kataklab yopganlar shu, -e
 Mo'min Mirzo, ukam, seni o'ldirdilar. -a

Topganlari zahar, to'kkanlari qon, -yo
 Qanday zamon ekan, do'stlar, bu zamon. -yo
 Bolam deb, oh chekar badinzamon, -yo
 Mo'min Mirzo, ukam, seni o'ldirdilar. -a

Sen-ku yo'qsan, ammo qotillar yashar, -j
 Hamon go'daklarga qilish qayrashar. -j
 Qachon pok bo'larkan bulardan Bashar, -j
 Mo'min Mirzo, ukam, seni o'ldirdilar. -a

Besh yuz yil birida esladim bir pas,	-z
Lekin bu behuda mata ming emas.	-z
Qalbimni o'rtada allaqanday sas....	-z
Mo'min Mirzo, ukam, seni o'ldirdilar.	-a

Abdulla Oripov so'zning ifoda kuchini bexato sezadi, hayotni o'z bilishicha uni o'ziga xos yangi nazar bilan ko'radi.

Katta shoir hamisha o'z vaqtida maydonga keladi, u hamisha tarixiy zamon, katta shoir o'z xalqining ovozi uning orzu umidlari va inson qalbi istiroblarining ifodasidir.

Biroq eng asosiysi, u o'z davrining hakami va kuychisi, u jarchi va faylasuf, u so'z sehgari va uzlatga chekingan mutafakkir – darvish.

Bularningbari unga qalb izhorini hammaga birday tushunarli, sevimli va shu bilan birga, ko'tarinki teran ma'nolarni ifodalash uchun ato etilgan shu bois shoirning so'zlaridan zamondoshlari ham kelgusi avlodlar ham faxrlanib yuradilar.

Abdulla Oripov menga XXI asrga qadam qo'ygan davrimizning buyuk ma'daniy ahamiyatga molik ana shunday shoiri bo'lib gavdalanadi. She'riyatda bir necha yillar oldin yangi nafas paydo bo'ldi. Agar siz tomchini kuzatgan bo'lsangiz, to'lishgandan keyin tomadi. Abdulla Oripovning she'rlari ham ana shunday olin so'zma-so'z, satrma-satr yuragi qonida qaynab pishadi. Ana undan so'ng qog'ozga tushadi. Abdulla Oripov lirikasida qadimiy o'zbek she'riyatiga xos eng go'zal jihatlar mujassamlashgan o'zbekning ramzi bo'lgan ijodkor. Davlat madhiyasini yaratish kamdan – kam ijodkorga nasib etadigan baxtdir. Abdulla Oripovning har bir o'zbekistonlik qalibida joy olgani shubhasiz.

Abdulla Oripovning she'riyatimiz ohangida paydo bo'lishini chaqmoqqa o'xshatadilar. To'g'ri! Ammo chaqmoq o'chadi qudratli iste'dod sochgan nur eta, umrboqiy, Abdulla Oripov she'riyatning dovrug'ini momoqalldiroqqa o'xshatadilar. Rost! Ammo momoqalldiroq guldurasa tinadi qalblarni maftun etgan she'riyatning sadosi esa-abadiy.

Abdulla Oripov bir necha tarix voqeligi tarixiy shaxslar haqida she'rlar yozgan. Shulardan biri "Mo'min Mirzo" tarixda bo'lgan mashfiq xatolikni badiiylashtirib go'zal san'at asarini yaratgan. Bu go'zal she'r Mo'min Mirzo o'limiga bag'ishlangan marsiyadek yangraydi.

Tarixda ma'lumki, Husayn Boyqaro mastlik paytida Mo'min Mirzoni o'ldirishga farmon berib yuboradi.

Masi (kayfi) tarqaganidan so'ng esa ming pushaymon bo'ladi. G'azal mulkning sultoni bo'lgan Alisher Navoiy ham Mo'min Mirzoni suyar uning aql-idrokiga tasannolar aytar edi va bu o'zining bir qancha asarlarida bu haqida ma'lumotlar beradi.

Shoh saroyida hukm surgan fisq-u fasod, adolatsizlik o'z manfaati yo'lida hech narsadan hatto bu gunoh, bir murg'ak qalbning jonida qasd qilishgacha borgan saroy amaldorlarini ham Abdulla Oripov she'rida badiiy aks ettiradi, o'tmish va kelajakdan barchamizga ma'lumki hyech bir narsa yo'qki inson qalbiga she'riyatchilik ta'sir qila olmaydi. Mo'min Mirzoning o'z bobosining farmoni bilan o'ldirilganligi tarixdan ma'lum, lekin Abdulla Oripovning "Mo'min Mirzo" she'rini o'qiganimizda qalbimizda inja tuyg'ular jo'sh urdi. Husayn Boyqaroga va saroy amaldorlariga nisbatan nafrat uyg'onadi. Mo'min Mirzoga nisbatan cheksiz rahm mehribonlik uyg'onadi.

She'rning mavzusi dolzarb qo'shma vaznda yozilgan o'n bir va o'n ikki bo'g'inli barmoq vazni.

Har bir band o'ziga xos qofiyalangan. Masalan, birinchi bandi. Hazrat Navoiyning nazari tushgan yuragida balki she'r qoni jo'shgan. G'unchadek qalbida ohi uvishgan Mo'min Mirzo ukam, seni o'ldirdilar qofiyalanishi a,a,a,b tarzida qofiyalanib tushgan, jo'shgan, uvishgan kabi so'zlar qofiyadosh qilib olingan.

Bandlarning har birida **talmeh** san'atini uchratish mumkin. Bundan tashqari tashbeh, tashxis san'atlaridan ham unumli foydalangan.

Abdulla Oripovning "Mo'min Mirzo" she'rini o'qiganimizda qalbimizda injo tuyg'ular jo'sh uradi. Abdulla Oripov bir necha tarix voqeligi tarixiy shaxslar haqida she'rlar yozgan shulardan biri "Mo'min Mirzo" tarixda bo'lgan mushfiq

xatolikni badiiylashtirib go‘zal san‘at asarini yaratgan. Bu go‘zal she‘r Mo‘min Mirzo o‘limiga bag‘ishlangan murabba’ janrida yozilgan marsiyadek yangraydi.

MUHAMMAD YUSUF MURABBA’LARINING BADIY XUSUSIYATLARI

Muhammad Yusufning barcha murabba’larida xalqona kuy, ohang, go‘zal tasviriy ifodalar, so‘z o‘yinlari, tazod, tashbeh, talmeh kabi badiiy san‘at vositalaridan mohirona foydalanish ustun. Har bir so‘zida ishonch bor, e‘tiqod bor, dard bor. Shoir o‘sha ishonch, imon, dardni kitobxonga singdira olgan, yuqtira olgan.

Keling, shoir she‘rlariga murojaat qilaylik va uning qalb nidosiga quloq tutaylik.

“Vatan yagonasan” she‘rida og‘irlik, bosiqlik, fidoyilik faxrlanish hissini ko‘ramiz.¹⁾

VATAN YAGONASAN

Bobolar kalomi tilimda doyim,	-a
Sen uchun yuragim qo‘limda doyim.	-a
Sog‘inaman yurgan yo‘limda doyim,	-a
Vatan yagonasan dilimda doyim.	-a
Bahorlar o‘tadi, yozlar o‘tadi,	-b
Osmonni to‘ldirib, g‘ozlar o‘tadi.	-b
O‘zingdan o‘zga so‘z-sozlar o‘tadi,	-b
Vatan yagonasan dilimda doyim.	-a

Bu yorug' olamning jannatlari bor,	-v
Vatandan bo'lagin minnatlari bor.	-v
Joninga jonimning payvandlari bor,	-v
Vatan yagonasan dilimda doyim.	-a

1. M.Yusuf. Uyqudagi qiz. T.: Adabiyot va san'at nashriyoti. 1989 yil. 263 bet.

Dunyolar ichida o'zing bir dunyo,	-g
Qo'yingda yursam ham goho sir-dunyo.	-g
Onam deymi seni, singlim deymi yo,	-g
Vatan yagonasan dilimda doyim.	-a

To jahon bor ekan, hamisha bor bo'l,	-d
Temurning yurtisan, doyim tojdor bo'l.	-d
Poyingga baxshida jonimga yor bo'l,	-d
Vatan yagonasan dilimda doyim.	-a

She'rda vatanga fidoyi inson bo'lishlik g'oyasi ilgari surilgan murabba' o'n bir bo'g'indan, 6x5 tizimli turoqdan iborat.

Qofiyalanishi a-a-a-a, b-b-b-a, v-v-v-a, g-g-g-a, d-d-d-a – ya'ni besh banddan tashkil topgan. She'r barmoq vaznda yozilgan, unda o'xshatish (jannatga, sirli dunyoga, onaga, singilga), talmeh san'ati (Amir Temur) foydalangan. She'rda jo'shqinlik, fidoyilik, g'ururlanish namunasi o'z ifodasini topgan.

2. "Men dardimni kimga aytaman" she'rida har qanday sharoitda ham otaning farzandga mehri kuchli ekanligi o'z ifodasini topgan.

MEN DARDIMNI KIMGA AYTAMAN

Samarqandga borsam men agar,	-b
------------------------------	----

Ulug'bekni ko'rib qaytaman.	-a
U qon yig'lab turar har safar:	-b
Men dardimni kimga aytaman?..	-a
Bag'rimda bo'y yetgan bo'z bolam,	-v
Mergan bolam, lochin ko'z bolam.	-v
Bo'g'zimga tig' urgan o'z bolam,	-v
Men dardimni kimga aytaman?	-a
Sezmay qoldim.... O'shanda chog'im,	-g
Yulduzlarda ekan nigohim.	-g
Bilmadim ne edi gunohim,	-g
Men dardimni kimga aytaman.	-a
Qancha g'amga botmagan edim,	-d
Qancha og'u yutmagan edim.	-d
O'z bolamdan kutmagan edim!	-d
Men dardimni kimga aytaman?	-a
Tanim muzlab,goh tosh qotaman,	-e
Men shoh emas, axir, otaman.	-e
Go'rimda ham o'ylab yotaman,	-e
Men dardimni kimga aytaman.	-a
Samarqandga borsam men agar,	-i
Ulug'bekni ko'rmay qaytmayman.	-i
U menga qon yig'lar har safar,	-i
Men kimga aytishni bilmayman.	-a

Murabba'da otaning farzandga bo'lgan mehri ifodalangan. Bu mehr otaning o'z farzandidan g'ururlanishi, faxrlanishi orqali bayon etilgan. Biroq, o'g'ilning bemehrliigi, bu mehrsizlik qachon paydo bo'lganligi otani o'ylatadi, g'amga tashlaydi. Ota bu bemehrlik sabablarini axtaradi, butun hayolini o'g'lining qilgan ishi o'ylantiradi. She'r orqali biz ota va farzand o'rtasida samimiy mehr-oqibat bo'lishini, ayniqsa, farzandning har bir narsani o'ylab, mushohada yuritib ish qilishi lozimligi alohida ta'kidlanadi. Murabba' to'qqiz bo'g'indan, 4x5 turoqdan iborat. Olti banddan tashkil topgan mazkur she'rning birinchi bandi b-a-b-a, keyingi bandlari an'anaviy v-v-v-a, g-g-g-a, d-d-d-a, e-e-e-a, i-i-i-a - tarzida qofiyalangan. Barmoq vaznida yozilgan. She'rda "bo'z bolam", "lochin ko'z bolam", "tosh qotaman" kabi o'xshatishlardan, qon, tig', g'am, og'u kabi metaforalardan va talmeh san'atidan (Samarqand, Ulug'bek) mohirona foydalanilgan.

3. "Ko'klamoyim".

KO'KLAMOYIM

Sochimda oq, men bahordan o'tindim,	-b
Ko'klamoyim, ko'kingdan ber bir chimdim.	-a
Qor qo'ynidan zo'rg'a senga yetindim,	-b
Ko'klamoyim, ko'kingdan ber bir chimdim.	-a
Ko'nglinga ko'k binafshalar sochilsin,	-v
Kokiliga tolpopukdan soch ilsin.	-v
Boychechakka borar yo'llar ochilsin,	-v
Ko'klamoyim, ko'kingdan ber bir chimdim.	-a
Fasl boshi, ham oxiri o'zingsan,	-g
Majnunlarning yo'ldoshi ham o'zingsan.	-g
Laylilarning sirdoshi ham o'zingsan,	-g
Ko'klamoyim, ko'kingdan ber bir chimdim.	-a

Kelda endi sog'intirmay odamni,	-d
Sen yo'g'ingda bir o'y bosdi, yelkamni,	-d
Qorlar kurab ko'mib keldim otamni,	-d
Ko'klamoyim, ko'kingdan ber bir chimdim.	-a
Ko'king bilan kiyintiray dalamni,	-ye
Oyoqyalang suyuntiray bolamni.	-ye
O'zing olgin ko'ksimdagi alamni,	-ye
Ko'klamoyim, ko'kingdan ber bir chimdim.	-a
Ginam yo'qdir kuzda ketgan oqqushdan,	-i
Iymanmasin qayta eshik qoqishdan.	-i
Qumri bilan birga chiqdik biz qishdan,	-i
Ko'klamoyim, ko'kingdan ber bir chimdim.	-a
Jon ustida asrab yuray ko'kni men,	-j
To'yib-to'yib ko'zga surtay ko'kni men.	-j
Yana senga yetamanmi-yo'qmi men,	-j
Ko'klamoyim, ko'kingdan ber bir chimdim.	-a
Dil yayrasin, dala-dashting yasanib,	-z
Kapalakdek, men yalpizga yastanib-	-z
Ikki misra qo'shiq aytay, maqtanib,	-z
Ko'klamoyim, ko'kingdan ber bir chimdim.	-a

Biz yuqorida murabba' janrining ilk namunalari bundan ikki-uch ming yil ilgari xalq qo'shiqlarida, laparlarda, o'lanlarda (aytishuv) kuylanib kelganligini ta'kidlagandik. Quyida o'lanlardan misol keltirsanda so'ng "Ko'klamoyim" she'rini tahlil qilsak.

Qiz: Bulbullarning qo'ngani gul bo'ladi,

Olamdagi bor so‘zni til biladi.
Taraf bo‘lib aytmoqqa kepsiz aka,
Oxunliging bu yerda kim biladi.

Yigit: O‘lan aytsam, barchani kuydiraman,
Jiyranchani mehmonga mindiraman.
Qiziq-qiziq o‘landan ayt, oxun qizi,
Oxunligim shu yerda bildiraman.

O‘lanlardagi qofiyalanish tartibi, misra takrori, mantiqiy izchillik, sodda so‘z va iboralar “Ko‘klamoyim” va boshqa murabba’larda ham o‘z ifodasini topganligiga guvoh bo‘ldik.

Bahorni madh etish asnosida shoir “Ko‘klamoyim” she’rida ko‘klamni ulug‘laydi, uni mehrlil insonlarga, ustozlarga, ota-onalarga qiyoslaydi. Mehr-oqibatni insoniylikni, odamgarchilikni, an‘analarimizni, qadriyatlarimizni avaylab asrashga, tabiat bilan doimo hamnafas bo‘lishga undaydi. Inson va borliq o‘rtasidagi munosabatni ko‘rsatishga, tasvirlashga e’tibor berilgan. Tabiat va bahor manzarasini tasvirlash orqali hayotning go‘zal qirralari kashf etiladi, insonni go‘zalikka bo‘lgan muhabbatini oshiradi.

Murabba’ sakkiz banddan iborat bo‘lib, turoqlanishi 4x7 tizimdan tashkil topgan. She’rda o‘xshatish, talmeh, ta’zod san’atidan unumli foydalangan. Ko‘klamni ko‘klamoyim deb jonlantirib, insoniy muloqotlarni tasvirlagan. She’rda, qishni ayriliqqa, bahorni yangilanishga qiyos qilib, hayotning doimiy harakatda ekanligi bayon qilingan. Har bir bandda “Ko‘klamoyim, ko‘kingdan ber bir chimdim” misrasi to‘rtinchi qatorda takrorlanib, she’rning jo‘shqinligi va jozibadorligi ta’minlangan. Har bir bandda qofiyadan unumli foydalanilgan. Jumladan, “Ko‘klamoyim” murabba’sidagi yettita bandda yetti xil qofiyadan foydalanilgan. (O‘tindim, sochilsin, o‘zingsan, odamni, dalamni, oqqushni, men, yasanib). Ikkita banddagi qofiya radif sifatida ham ishlatilgan. (o‘zingsan, men).

Uning ana shunday she’rlaridan biri “Yurtim” she’ridir. Sarlavhadan ham anglashilganidek, she’r mavzusi ona vatan, vatan mehri haqida. Bu mavzu hamisha

dolzarb. Bu she'rda hyech qanday masala yo'qdek tuyuladi kishiga. Shoir bu she'rda o'tmishga, aniqrog'i yaqin tarixga nazar tashlaydi. Yurtning kechagi kunidagi bir qancha qora kunlarni, og'riq nuqtalarni she'rga soladi.

Bu she'rda eski mavzuning yangicha jozibasini ko'ramiz. Chunki, she'r mavzusi barcha shoirlar ijodida uchraydigan vatan mavzusi, ifodalanishi, undan o'quvchiga yuqadigan his-tuyg'ular esa yangicha joziba kasb etgan.

“Misralardagi bo'g'nilarning turoqlanish tartibining muayyan o'lchovga solinishi-vazndir. “Yurtim” she'rining vazni quyidagicha:

Yurtim ado bo'lmas / armonlaring bor,	6+5
Toshlarni yig'latgan / dostonlaring bor,	6+5
O'tmishingni o'ylab / og'riydi jonim,	6+5
Ko'ksing to'la shahid/ o'g'lonlaring bor.	6+5

Bu she'rning eng so'nggi bandi ham juddi shunday $6+5=11$ turoq tartibidadir.

Qurboning bo'lay, / yey onajonim,	6+5
Sening faryodlaring / - mening fig'onim,	6+5
O'tmishingni o'ylab / o'rtanar jonim,	6+5
Toshlarni yig'latgan / dostonlaring bor.	6+5

Ayni chog'da she'r bir turkumga kiruvchi bo'g'inlar (6+5) guruhidan iborat bo'lgani uchun sodda vazn deb yuritiladi. Shunday qilib, she'riy barmoq vaznidagi 11 bo'g'nili, 6+5 turoqli lirik asardir.

She'rning qofiyalanishi esa turlicha, lekin har 4 bandning so'nggi misrasi o'zaro qofiyadosh. Birinchi bandning 1-2-3-misralari o'zaro, ikkinchi bandning 1-2-3-misralari, uchinchi bandaning 1-2-4-misralari birinchi banddagi xuddi shu misralarga nisbatan qofiyadosh. To'rtinchi bandning 1-2-3-misralari alohida qofiyadosh bo'lsa, beshinchi bandning 1 va 2- misralari o'zaro, oltinchi bandning esa 1-2-3-misralari o'zaro qofiyadosh, ya'ni:

Yurtim, ado bo'lmas armonlaring bor,	-a
Toshlarni yig'latgan dostonlaring bor.	-a
O'tmishingni o'ylab og'riydi jonim,	-b
Ko'ksing to'la shahid o'g'lonlaring bor.	-a

Bag'rim o'rtar bir o'y bahor ayyomlar,	-b
Oy borgan yoqlarga termulib shomlar.	-b
Aybin bilmay ketgan Akmal, Ikromlar,	-b
Fayzulladek mardi maydonlaring bor.	-a
Yurtim, ko'nglingdek keng osmonlaring bor,	-v
Yulduzni yig'latgan dostonlaring bor.	-v
Osmonlaringdan ham diydoringa zor,	-v
Jayrondek termulgan Cho'lponlaring bor.	-a
Qo'ling qadog'iga bosay yuzimni,	-g
Onamsan-ku, og'ir olma so'zimni.	-g
Qayinbarglar yopib qaro ko'zini,	-g
Olislarda qolgan Usmonlaring bor.	-a
Alhazar, alhazar, ming bor alhazar,	-d
Ana, yurishibdi kiyganlari zar.	-d
Qodiriyni sotib shoir bo'lganlar-	-d
Mehrobingdan chiqqan chayonlaring bor.	-a
Qurboning bo'layin, yey onajonim,	-e
Sening faryodlaring – mening fig'onim,	-e
O'tmishingni o'ylab o'rtanar jonim,	-e
Toshlarni yig'latgan dostonlaring bor.	-a

She'rdagi birinchi bandning 1-2-4-misralarida “bor” so‘zi radif bo‘lib kelgan. Qolgan har bandning so‘nggi misrasida ham ana shu so‘z radif bo‘lib kelib, har oltita bandning bir butunligini ta‘minlashga xizmat qilgan.

Bu she'rda eng ko'p qo'llangan badiy san'at talmeh san'atidir. Chunki ikkinchi bandning 3- va – 4 – misralarida Akmal Ikrom va Fayzullo so'zlari, uchinchi bandda esa Cho'lpon, to'rtinchi bandda esa Usmon hamda, beshinchi bandda Qodiriy va mehrobingdan chiqqan chayonlaring bor deb talmeh san'atidan foydalangan.

Muhammad Yusufning keyingi she'ri "O'g'lonlar" dir. Garchi boshqa shoiru shoiralar ham yitlar haqida ko'plab she'ru dostonlar yozgan bo'lishsa-da, bu she'r ulardan butkul farq qiladi.

Bu she'rda maxzunlik, armon va marsiyaga o'xshagan bir hazinlik bor. bu she'rdagi ma'no juda kuchli, juda g'amgin. Uning birinchi bandida (she'r jami 6 banddani biorat) o'xshash sn'atidan juda ustalik bilan foydalanilgan. Birinchi band quyidagicha:

O'zbek degan cho'ng chinoring novdasi,	-b
Yashnab ketib so'lib qaytgan lolalar.	-a
Oqto'rg'aydek o'g'longina gavdasi,	-b
Askarlikdan o'lib qaytgan bolalar.	-a

Bu bandning qofiyalanishi quyidagicha a-b-a-b bu she'r ham birinchi she'r kabi barmoq vaznida. Lekin bu she'r 4+7 turoq tarzidagi 11 bo'g'inli lirik asardir. Ikkinchi band esa quyidagicha:

O'zbekka yov ham joyda bor, hamdam yo'q,	-v
Undan yuvosh, undan mo'min odam yo'q.	-v
O'zbekka o'q har joyda bor, malham yo'q,	-v
Askarlikdan o'lib qaytgan bolalar.	-a

Avvalo she'rning qofiyasiga e'tibor qaratsak: hamdam, odam, malham, ya'ni v-v-v-v bu band ham 11 bo'g'inli-yu lekin turog'i (1-2-3-misralarning) $8+3=11$ dir. To'rtinchimisrasi ham xuddi shunday o'qilishi ham mumkin, agar shunday qilsak, birinchi banddagi misralardagi turoqni ham xuddi shunday shaklda o'qishimiz kerak bo'ladi.

Uchinchi bandning tashiyotgan ma'nosi esa og'ir, juda zalvorli:

Yigit yo‘li bo‘lmaydiku xatarsiz,	-g
Biz o‘ylardik: bir kun kelib qaytarsiz!	-g
Temir tobut ichra qaqshab yotarsiz,	-g
Askarlikdan o‘lib qaytgan bolalar.	-a

Bu misralarning ohangdoshligiga sabab 1-2-3-misralarning o‘zaro (ye-ye-ye) qofiyadoshligidadir. To‘rtinchi band esa nihoyatda dilni o‘rtovchi, nohaqlikdan yozg‘iruvchi. U quyidagicha:

O‘z yurtida suvga cho‘kib o‘lmagan,
 O‘tda kuysa kiyib, o‘ksib o‘lmagan.
 Yo bir jonda qonin to‘kib o‘lmagan-
 Askarlikdan o‘lib qaytgan bolalar.

Bu banddagi cho‘kib, o‘ksib, to‘kib so‘zlari o‘zaro qofiyadosh so‘zlar bo‘lsa, ana shu so‘zlardan so‘nggi “o‘lmagan” so‘zi 3 joyda takrorlanib ham radif ma’nosi, vazifasini, ham she’rning butun ma’nosini, ma’no-mazmun nimaga qaratilganligini, urg‘uning qaysi so‘zga tushayotganligini aniq ifodalashga xizmat qilgan. To‘rtinchi bandda ona obrazi kiritiladi va orzulari armonga aylangan onaizorning dilni o‘rtovchi, butun dunyoga o‘t quyuvchi javobsiz savoli yangraydi:

Onangsiz zor yig‘lab bag‘ri giryondir,
 Aybi nima bolamni? – deb hayrondir.
 Tinch kunlarda uvol ketgan yomondir,
 Askarlikdan o‘lib qaytgan bolalar.

Bu bandning qofiyalanishi quyidagicha: giryondir, hayrondir, yomondir, ya’ni g-g-g-b.

She’rning so‘nggi banddi quyidagicha:

O‘z uyida erka o‘g‘lon edingiz,
 Yot yurtlarda buncha sarson bo‘ldingiz!
 Mozorlarda o‘n sakkizga to‘ldingiz,
 Askarlikdan o‘lib qaytgan bolalar.

Ko‘rib turganimizdek band **misralaridagi, ya’ni qofiyadosh** so‘zlar edingiz, bo‘ldingiz va to‘ldingiz so‘zlaridir. Bo‘g‘in va turoqlar o‘sha-o‘sha, oldingi bandlardagi kabi. Bu she‘rdagi yana bir o‘ziga xosligi shundaki har bir bandning so‘ngida “Askarlikdan o‘lib qaytan bolalar” jumlası boshqa misralarnı (munchoqlarnı) bir ipga tuzib, birlashtirib, ma‘noni kuchaytirib turadi.

Oxirgi bandning uchinchi misrasi boshqa bandlardagi salgina bo‘lsa-da mavhumlikni ochishga xizmat qilgan kalit ma‘nosini bajaradi. Chunki, yuqorida aytganimizdek “Askarlikdan o‘lib qaytgan bolalar” jumlası takrorlangan va undagi bolalar so‘zi aynan “Mozorlarda o‘n sakkizga to‘ldingiz” jumlası bilan ifodalanadi va askarlikdan o‘lib qaytgan, hali “o‘n gulidan bir guli ochilmagan”, biror bir orzusini amalga oshirishga ulgurmagan, hayotning go‘zalliklaridan endi-endi bahra olayotgan, shoir tili bilan aytganda “mo‘ylovi endi sabza urgan”, kuch-quvvatga to‘lib, tog‘ni-talqon qiladigan yoshdagi bevosita, sog‘lom yigitni ko‘z oldimizda gavdalantiradi.

Muhammd Yusuf ijodidan tahlil qilgan har ikkala “Yurtim” hamda “O‘g‘lonlar” she‘ri ham juda kuchli pafosga yo‘g‘rilgan holda yozilgan. Ikkala she‘rda ham maxzunlik bor, lekin ikkinchisidagi g‘aminlik birinchisidagidan ko‘ra kuchliroq. Har ikkala she‘r ham o‘n bir bo‘g‘inlik barmoq vaznida yozilgan bo‘lsada turoqlanishi ikki xil.

Eng muhimi har ikkala she‘rning ham badiiyligi yuqori, chunki birinchi she‘rda vatan dardi tilga olingan bo‘lsa, ikkinchisida kishilar, onalar, umuman bashariyat dardi insonlarning orzu-armonlari, intilishlari, his-tuyg‘ulari, azob – uqubatlari yoki xushnud kunlari qalamga olinsa-yu boshqalarga ham yuqsa, uning badiiyligi, oldiga qo‘ygan maqsadi bajarilgan ana shunda.

M.Yusufning “O‘zbek” she‘rida ko‘tarilgan masala o‘zbek xalqiga o‘xshagan bunday xalqni hech qayerdan topib bo‘lmasligini. Bu xalqning Alpomishday ulug‘ o‘g‘lonlari borligini. Har bir o‘zbek xonadonida o‘nta farzandi bo‘lsa ham har birining o‘ziga xos o‘rni borligini ta‘kidlaydi. Bu xalq kerak bo‘lsa vatani uchun bir so‘z aytmadan jonini fido qilishga tayyor ekanligini ko‘rsatadi.

She’rda qo‘yiladigan asosiy maqsad o‘zbek xalqining qanday xalq ekanligini aks etib turadi matnda.

Bu mavzuda juda ko‘p shoirlarimiz tomonidan she’rlar yozilgan. Mavzuning yangicha ko‘rinishi agar o‘zbek xalqining bir oilasini bir joyga ya’ni bir hovliga yig’sak to’shaklar yetmay, o‘z to’nini tashlashi ko‘rsatilgan she’rda. Bundan ko‘rinib turibdiki xalq bir-biri bilan ahil-inoq yashashi ko‘rsatilgan.

M.YUSUFNING “O‘ZBEK” SHE’RI BARMOQ VAZNIDA, MURABBA’ JANRIDA YOZILGAN

She’r 11 barmoq vaznida yozilgan.

O‘z-bek-ka o‘x-sha-tish top-moq mu-am-mo,	-b
O‘x-sha-sa o‘-zi-ga o‘x-shay-di o‘z-bek.	-a
Qi-yo-si-yo‘v u-ning, meh-ri bir dar-yo,	-b
Dun-yo-da bo-lam deb ya-shay-di o‘z-bek.	-a

She’rning turoqlanishi quyidagicha:

Bir qo‘lda belanchak, / bir qo‘lda quron,	6+5=11
Bir yelkada ketmon, / birda iymon.	6+5=11
Barchaga barobar/bir oftobsimon,	6+5=11
Yashasin olam deb / yashaydi o‘zbek.	6+5=11

She’rning qofiyalanishi.

O‘zbekka o‘xshatish topmoq muammo,	-b
O‘xshasa o‘ziga o‘xshaydi o‘zbek.	-a
Qiyosi yo‘q uning, mehri bir daryo,	-b
Dunyoda bolam deb yashaydi o‘zbek.	-a

Bir qo‘lda belanchak, bir qo‘lda quron,	-v
Bir yelkada ketmon, birida iymon.	-v
Barchaga barobar bir oftobsimon,	-v
Yashnasin olam deb yashaydi o‘zbek.	-a

O'nta bo'lsa o'rni boshqa uning - chun-	-g
O'g'lim otashimdan yaralgan uchqun.	-g
Qizim parilardan chehrasi gulgun,	-g
Yuzlari lolam deb yashaydi o'zbek.	-a
Momolari tetik yuzga kirsa ham,	-d
Bobolari qaysi yigitlardan kam.	-d
Zuryodlari bo'lsa bir hovliga jam,	-d
To'shak yetmay to'nini tashlaydi o'zbek.	-a
Ehtirom etganda ehromlari bor,	-e
Kekkayganda bo'yin yegmagay zinhor.	-e
Beshigida jajji Islomlari bor -	-e
Tosh o'tmas qo'rg'onga o'xshaydi o'zbek.	-a
Kindik qoni tomgan tuproq unga shon,	-o
Kerak bo'lsa, be so'z baxsh etar u jon-	-o
Ko'krakka urmaydi: vatan deb, vatan!	-o
Alpomish o'g'longa o'xshaydi o'zbek.	-a
Muhammad, kim bo'lding qiyosin topib,	-j
O'xshasa o'ziga o'xshaydi o'zbek.	-j
Yomon she'r yozsang ham betingdan o'pib,	-j
Kam bo'lma, bolam, deb yashaydi o'zbek.	-a

tarzida qofiyalangan.

“O'zbek” she'ridagi har bir bandda o'zbek xalqi ulug'lanadi. Uning o'ziga xos fazilatlari, shu yurtda ulg'ayib buyuk inson bo'lgan insonlar ulug'lanadi.

She'rda irsoli masal san'atidan foydalangan:

O'nta bo'lsa o'rni boshqa uning - chun- -z
O'g'lim otashimdan yaralgan uchqun. -z
Talmeh san'atidan foydalanilgan.
Ko'krakka urmaydi: vatan deb, vatan!
Alpomish o'g'longa o'xshaydi o'zbek.

kabi badiiy san'atlardan foydalangan.

She'ring oxirgi bandida shoir o'zining ismini keltirib, sen qancha maqtansang ham maqta, uni qancha maqtasang shuncha oz. O'xshasa ham o'ziga o'xshaydi. Men yomon she'r yozsam ham yuzimdan o'pib, duolar qiladi, o'zbekim deb aytmoqda shoir.

Muhammad Yusuf ijodiga mansub bo'lgan "Ona Turkiston" she'ri 6 banddan iborat. Vatanga bo'lgan muhabbatni ifodalovchi she'r hisoblanadi. Umuman olganda, Muhammad Yusufning hamma she'rlarida ham muhabbat tuyg'usi ifodalangan. Bular qanday muhabbat? Yo vatanga yo yorga bo'lgan samimiy va beg'araz muhabbatdir. Buni biz shoirning "Ona Turkiston" deb nomlangan she'ri misolida ham kuzatishimiz mumkin. Bu she'ring birinchi bandi quyidagicha:

Ko'klarga sig'may yayrab ruhi jon, -b
Ko'zlarga sevinch yoshlari to'ldi. -v
Ammo sen nechun mahzun, parishon, -b
Ona Turkiston, senga ne bo'ldi. -a

Bu she'rda shoir Ona Turkistonga murojaat qiladi. Aytadiki, Ona Turkiston senga nima bo'ldi, sen bir vaqtlar shunaqa darajada yayroq va xursand sevinch yoshlaridan yig'lar eding ammo bu nega buncha mahzunsan senga nima bo'ldi? Deb kuyinayotganligini ko'ramiz shu bir misraning o'zidayoq shoirni Vatanni qanchalik sevishini uning baxtidan qanchalik xursand ekanini baxtsizligidan esa qanchalik g'am-g'ussaga botganligini ko'ramiz. Shoir vatanga bo'lgan bu tuyg'usi keyingi bandlarda ham namoyon bo'ladi. Ikkinchi bandi esa quyidagicha:

Kishanlar ketib, yetgach, mureddga, -v

Shahid o'g'lonlar keldimi yodga.	-v
Ko'ngil-ko'ngil to'ldimi dodga,	-v
Ona Turkiston senga nima bo'ldi.	-a

Bunda ham shoirning yuqoridagi fikrlariga hamohang tarzida Ona Turkistonga murojaat qiladi. “Kishanlar ketib murodinga yetgandan so'ng shahid o'g'lonlar yodingga keldimu g'amga, g'ussaga botgan kuning dodga to'ldimu” – deydi.

Bu bilan shoir Vatan mustaqillik (farishtasi)ga erishi uchun qanchalar yigitlarning shahid ketganliklarini eslaydi.

Uchinchi bandda esa quyidagi mazmunni ko'rishimiz mumkin.

Erk yo'qlagan chog' ko'z yosh nimasi,	-g
Ketdi boshingdan ajdor ko'lkasi,	-g
Arslonlar to'qqan she'rlar o'lkasi,	-g
Ona Turkiston, senga ne bo'ldi.	-a

Shoir birinchi misrada shunday deydi: Ey Turkiston, erking yo'qolgan chog'da g'am-g'ussaga botib yig'laganing nimasi, sen axir arslonlar to'qqan she'rlar o'lkasisanku, bu og'ir holatda yig'lashing nimasi mustaqilliging uchun kurash deb uni olg'a intilishga chorlamoqda agar shoir aytgandek harakat qilsa uning ham hayotiga yaxshi kunlar kelishini boshidan ajdar ko'lankasi ketishi mumkinligini aytmoqda.

Bu bandlarning har birida shoir aytmoqchi bo'lgan fikrlarini majoziy yo'l bilan aytishga harakat qilgan. Buni isbot sifatida biz kelgusi bandni ko'rib o'tsak.

Chorlasang tushib, noringga to'lar,
 Daryoday toshib, shamolday yelar.
 Yo'qlardan yelib Cho'lponing kelar,
 Ona Turkiston, senga ne bo'ldi.

Shoir o'z vatani Ona Turkistonni sen bir bo'ston gullari so'nmas hattoki qiyomatda ham chiroying so'nmas menga bir bolam deb qo'ysang bas men seni shu

holga solganlarda albatta qutqaraman deb, lirik qahramon Ona Turkistonga o'timoqda.

Shoirning yuqoridagi fikrlarini davom etganligini ko'rishimiz mumkin.

Ey yori aziz, ey bag'ri quyosh,
Jigar go'shangman joningga jondosh.
Quvonganingdan qildingmu ko'z yosh,
Ona Turkiston, senga ne bo'ldi.

Bu band yuqoridagilarning bir xulosasiga o'xshaydi.

Shoir aytadiki, Ona Turkistonga murojaat qiladi. Ey yori aziz deydi va nima uchun quvonganingdan yig'lamaysanda g'amga botgan holingda yig'laysan seni deb Turkistonning og'ir ahvoliga kuyinadi g'am chekadi.

Abdualla Oripov va Muhammad Yusuf she'rlari sodda tilda, har birimiz kundalik muloqotda foydalaniladigan so'zlardan mahorat bilan foydalanganligi diqqatga loyiq. She'rda klassik an'anaviy qofiyalanish bilan birgalikda bugungi kun ruhi o'z ifodasini topgan. Mana shu ruh ham she'rni o'qimishli bo'lishiga sabab deb o'ylaymiz. O'quvchilar, kitobxonlar ana shuning uchun ham shoir murabba'larini sevib o'qishadi, qo'shiq qilib aytishadi. Murabba'ning xalqchiligi ham shunda.

X U L O S A

Hozirgi o'zbek adabiyotida keyingi bir asrlik davr, jumladan, mustaqillik yillarida ijod qilgan shoirlar, Cho'lpon, Fitrat, Oybek, G'.G'ulom, H.Olimjon, Uyg'un, Habibiy, Charxiy, Sobir Abdulla, Akmal Po'lat, Vosit Sa'dulla, Abdulla Oripov, Omon Matjon, Muhammad Yusuf ijodida barmoq vaznida yozilgan murabba'lar alohida ilmiy tadqiqot obyekti bo'lmadi. To'g'ri, ularning ijodi haqida, asarlarining g'oyaviy mazmuni to'g'risidagi tadqiqotlarda u yoki bu tarzda ma'lumot berilgan bo'lsa-da, murabba' janri alohida o'rganilmadi va shu nuqtai nazardan A.Oripov va M.Yusuf murabba'larining o'ziga xos xususiyatlarini yoritishga harakat qilindi.

Ishda A.Oripov va Muhammad Yusuf ijodlarida murabba' janrining o'rni va ahamiyati haqida fikr yuritildi. Chunki bu janr xalq qo'shiqlari, laparlari, aytishuvlariga yaqin, sho'x, o'ynoqi. Muhammad Yusuf o'zining oltmishga yaqin murabba'lari bilan xalq qalbidan joy oldi. Ularning barchasi qo'shiqqa aylandi. Ana shularning mazmun mohiyati quyidagicha ilmiy tahlil qilindi.

Birinchidan, Abdulla Oripov va Muhammad Yusufning murabba' janridagi she'rlari alohida holda o'rganilib, uning mazmun mundariyasi va mavzulari aniqlanib.

Ikkinchidan, shoirlar ijodidagi murabba' janrining o'ziga xos badiiy xususiyatlarini ochib berildi.

Uchinchidan, Abdulla Oripov va Muhammad Yusufning bu janr imkoniyatlaridan foydalanib, o'z fikr g'oyalarini yangicha bayon qilganligi aniqlandi.

To`rtinchidan, Abdulla Oripov va Muhammad Yusuf ijodi misolida o`zbek she`riyatida murabba` janrini bugungi kundagi o`rnini belgilab berildi. Bu nafaqat o`zbek adabiyotida, balki turkiy xalqlar adabiyotidagi (ozarbayjon, turkman, qozoq, qirg`iz) bu janrning hozirgi o`rniga baho berish va buning sabablarini o`rganishga yordam beradi.

Beshinchidan, turkiy xalqlar she`riyatida o`ziga xos o`ringa ega bo`lgan murabba` janrining va bugungi kunda bu janrda yaratilgan badiiy asarlarning insonparvarlik ruhidagi tarbiyaviy ahamiyatini kitobxonlarga, o`quvchilarga yetkazish, tushuntirishga yordam beradi. Komil insonni tarbiyalashga yanada e`tibor qaratiladi deb o`ylaymiz.

A D A B I Y O T L A R

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Karimov I. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor.-T.: O'zbekiston, 2009.
3. Adabiyot darsliklari. 5,6,7,8,9-sinflar. 2006-2010 yillar. T.: O'qituvchi nashriyoti.
4. Alisher Navoiy. Tanlangan asarlar. 13 tom. Toshkent. Fan. 1997 yil.
5. A.Oripov. Ifodali o'qish. O'quv qo'llanma. Toshkent. 2006 yil.
6. Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. T.: 1992 yil.
7. A.Qayumov. Qadimiyat obidalari. T.: 1972 yil.
8. A.Zunnurov, J.Esonov. Maktabda adabiyot o'qitish metodikasi. T.: O'qituvchi. 1985 yil 196 bet.
9. A.Xudoyberdiyev. O'zbek poeziyasida murabba'. Samarqand. Adabiyot va san'at nashriyoti. Sam.bo'lim, 1991 yil 82 bet.
10. A.Oripov. T-a. I tom. Adabiyot va san'at nashriyoti. T.: 2000 yil. 432 bet.
11. A.Oripov. T-a. I tom. Adabiyot va san'at nashriyoti. II tom 2001 yil 490 bet.
12. Adabiy ta'lim va yoshlar tarbiyasi. Ilmiy anjuman materiallari. 2-kitob. 2010 yil. 184 bet. Nizomiy DPU.
13. A.Xudoyberdiyev. Adabiyot darslarida innovasion texnologiyalaridan foydalanish. Uslubiy qo'llanma. SamDU nashriyoti, 2010 yil. 76 bet.
14. B.To'xliyev, Adabiyot o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. Toshkent, O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2012 yil. 167 bet.

15. B.To‘xliyev, Adabiyot o‘qitish metodikasi. Amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2012 yil. 142 bet.
16. M.Ibraximov. O‘zbek sovet poetikasi janrlarining tarkib topishi. T.: Fan, 1983 yil. 224 bet.
17. 5220100 – filologiya. (O‘zbek filologiyasi). Ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha o‘quv dasturi. 2003 yil. 163 bet.
18. I.Haqqul. Tasavvuf va she‘riyat. T.: 1991 yil.
19. 5-9 sinflar adabiyot o‘quv dasturi. Toshkent. O‘qituvchi. 2012 yil.
20. M.Yusuf. Uyqudagi qiz. T.: Adabiyot va san’at nashriyoti. 1989 yil. 263 bet.
21. N.Komilov. Tasavvuf. 1-kitob. T.: Yozuvchi. 1996 yil.
22. Internet, Ziyonet.

MUNDARIJA

KIRISH.....	5
O‘zbek mumtoz adabiyotida murabba’ she’r janri va u bo‘yicha qilingan ishlar tahlili.....	7
Murabba’ va uning qadimgi turkiy she’riyatidagi namunalari.....	10
Mahtumquli ijodida Navoiy an’analari.....	26
Mashrabning qalb nidolari.....	30
XX asr va hozirgi she’riyatda murabba’ an’analari, yangilanish holatlari....	34
Abdulla Oripov murabba’larining badiiy xususiyatlari.....	41
Muhammad Yusuf murabba’larining badiiy xususiyatlari.....	59
Xulosa.....	75
Adabiyotlar.....	77